

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI

IJTIMOY PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA MAKTABGACHA

TA'LIM KAFEDRASI

“MUTAXASSISLIKKA KIRISH”

fanidan

MA'RUZA MATNI

QARSHI

**1-mavzu: “MUTAXASSISLIKKA KIRISH” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.
MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA UNDA
TARBIYACHINING TUTGAN O’RNI.**

R E J A:

- 1. “Mutaxassislikka kirish” fanining predmeti va uning vazifalari.**
- 2. Maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar.**
- 3. Tarbiyachi shaxsining islohotlarni borishidagi o’rni.**
- 4. Oliy maktabning o’rta maktabga nisbatan xususiyatlari.**

Tayanch so’z va iboralar: talaba, oliy maktab, islohotlar, ta’lim, tarbiya, bo’lajak tarbiyachi, o’quv kursi, predmet, vazifa.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Qonun sifatida Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi tasdiqlandi. Bu hujjat ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida chuqur islohotlar asosida davlatimiz siyosatini ustuvor yo‘nalishini belgilab berdi. Ta’lim jarayonining mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu bosqichning dastlabki yo‘nalishi **mutaxassisikka kirish o‘quv kursini** o‘rganishdan boshlanadi.

Bu kursni o‘rganish jarayonida talaba faqat oliy ta’lim haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish bilan chegaralanmasdan, uning o‘rta ta’limdan farqini yaxshi tushunib olishi kerak, oliy ta’limning tuzilishi, o‘quv jarayonining tashkiliy masalalari, tartib-intizomi, yo‘nalishlari haqida yetarli darajada xabardor bo‘lishi kerak. Bu biz o‘rganayotgan kursning umumiy vazifasi va yo‘nalishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dastur haqida gapirganlarida “...har tomonlama yetuk yuqori malakali kadrlar tayyorlash dasturimizning asosiy sharti bo‘lishi kerak” degan edilar. Faqat shunday kadrlar ta’lim, ilm–fan va ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oydinlashtiradilar, belgilaydilar.

Intellectual hamda sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda ta’lim tizimining bosh maqsadi – bu raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali raqobatga qodir xizmatlarni ko‘rsatishdir. Yuqori malakali kadr tayyorlashda ta’lim, ilm–fan va ishlab chiqarish qay darajada o‘zaro bog‘langan, o‘zaro hamkorlikka erishgan bo‘lsa, professional ta’limdan foyda shunchalik ko‘p bo‘ladi.

AQSH, Fransiya, Yaponiya kabi intellektual va sanoati rivojlangan bir qator davlatlar tajribasining tahlili ko‘rsatishicha barcha pog‘onalarda etishtiriladigan kadrlar raqobatbardoshligi va kadrlar tayyorlashning sifati:

- ta’lim, ilm–fan va ishlab chiqarishning uzviy bog’langanligi;
- fan–texnika, texnologiya va iqtisodiyot borasidagi erishilgan eng so’nggi yutuqlarga asoslanib ishlab chiqilgan kasbiy ta’lim dasturlari hamda ta’lim muassasalari turlarining rang–barangligi;
- professional ta’lim tizimini iqtisodiyotning ustuvor va foyda keltiruvchi tarmog’iga yuz o’girganligi, asoslanganligi;
- ta’lim muassasalarini zamonaviy o’quv–uslubiy adabiyotlari hamda moddiy–texnikaviy bazasi bilan ta’minlanganligi;
- professional ta’lim tizimiga yuqori malakali o’qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilinganligi;
- ta’lim jarayonining informatsiyalashtirilganligi va kompyuterlashtirilganligi;
- kadrlar tayorlash sifatini xolisona baholash va nazorat qilish tizimining qo’llanilganligi;
- intellektni o’lchash va baholash, qobiliyat va shaxsiy sifatlarni o’lchash va baholash, ularning o’sishi muammolari bo’yicha, shuningdek kasbga yo’naltirish muammolari bo’yicha psixologik–pedagogik izlanishlar, tadqiqot ishlarining bajarilganligi;

Xorijiy mamlakatlar va Respublikamiz tajribasidan kelib chiquvchi fikr–mulohazalar va xulosalar hamda yuqorida zikr etilganlar, O’zbekiston Respublikasi hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar siyosatining beshta tamoyili kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga asos qilib olingan.

Kadrlar hayotiy siklining uchta asosiy bosqichida ularning malakasi yuqori bo’lishini ta’minlashga kompleks yondoshish Milliy dastur strategiyasining negizida yotadi. Birinchi bosqichda kadrlarga bo’lgan ehtiyoj bashorat qilinadi va shaxs, jamiyat va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muayyan talablar aniqlanadi. Bunda oldindan aniqlanuvchi ildam malaka saviyasi o’rganiladi.

Ikkinchi bosqichda kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi. Bunda o’rnatilgan malaka saviyasi ta’minlanadi.

Va nihoyat, uchinchi bosqichda kadrlardan kasbiy faoliyati doirasida foydalanish bilan bogliq bosqichda ta’minlangan malaka saviyasi qo’shimcha kasbiy ta’lim (yoki o’zi mustaqil bilim olish) miqyosida davriy ravishda yangilanishi va ortib borishi kerak bo’ladi.

Kadrlarning tasnifiy tavsifi, davlat ta’lim standartlari, me’yorlar, ta’lim mazmunini, moddiy texnika bazasini, moliyalashtirishni, professor–o’qituvchilar tarkibini, ta’lim muassasasining o’quv–ilmiy–ishlab chiqarish va boshqa faoliyatlarini aniqlovchi Nizomlar va boshqa hujjatlar Milliy dastur markaziy strategiyasining huquqiy-me’yoriy bazasi bo’lib hisoblanadi.

Yuqoridagi dolzarb vazifalarni hisobga olgan holda ushbu ma’ruzalar matni universitetning barcha fakultetlari kasbiy–pedagogik tayyorgarlik ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun 20 soatli ma’ruza, 18 amaliy mashg’ulot, 18 soatli seminar, 56 soatli mustaqil ta’lim shaklida mustaqil fan sifatida 1–kursda o’tilishi lozim bo’lgan “Mutaxassislikka kirish” fani bo’yicha tayyorlandi.

Mutaxassislikka kirish fani o’quv yurtlarining qisqacha taraqqiyot tarixi, ularning tuzilishi va vazifalari, o’quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o’qitish jarayonining asosiy shakllari, o’quv rejasining mazmuni, ilmiy–tekshirish ishlari, o’qish va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalaridan foydalanish, talabalarning huquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustaqil ishlashni to’g’ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiat muhofazasi, bibliografiya texnikasi kabilarni talabalarga tanishtiradi.

Talabalar kurs materiallarini o’zlashtirish uchun nimalar qilinishi lozimligi, o’zlashtirishni hisobga olish, talabalarni yakuniy nazorat va reyting ishlariga tayyorlash hamda ularni o’tkazishni tashkil etish, talabalar o’quv–tadqiqot va ilmiy–tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o’quv–mehnat va turmush nafosati kabi sohalariga ham “Mutaxassislikka kirish” fanida alohida o’rin ajratiladi.

Olinayotgan bilimlar talabalarning ongiga to’la singib borishi, bo’lajak mutaxassislarning hayotiy maqsadlariga aylanishi kerak bo’lgan asosiy masaladir.

“Mutaxassislikka kirish” fanining maqsadi talabalarda ishlab chiqarish va mehnat faoliyatiga ko’nikma hosil qilishdan iboratdir.

Mutaxassis – bu mohir tashkilotchi, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan xodim hisoblanadi. U odamlar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko’radi, o’z o’rtoqlarining maslahatiga quloq soladi, qo’lga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondoshadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirkor, o’z ishining ustasi, jamiyatning haqiqiy ziyolisidir.

Mutaxassislik bu ilm–fan, texnika, sanoat sohalarida bir mustaqil kasbdir.

O’zbekiston Respublikasi hududidagi barcha Oliy o’quv yurtlarida 1974–1975 o’quv yilidan boshlab o’quv rejalariga “Mutaxassislikka kirish” mustaqil fanini kiritish haqida qaror qabul qilingan edi. Hozirgi paytda bu fan uchun 20 soatli ma’ruza, 18 soatli amaliy mashg’ulot, 18 soatli seminar va 56 soatli mustaqil ta’lim kursi ajratilgan. Bundan ko’zlangan maqsad talabalarni Oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o’zlashtirib olishda ko’maklashish bo’lib, oqibat natijada fanlarni yaxshi o’zlashtirishlarida yordam berish, ulgurmovchiliklarning oldini olishdan iboratdir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov istiqloqlarning ilk kunlaridan buyon muntazam tarzda kelajagi buyuk Vatanimizning bunyodkorlari – yoshlar tarbiyasi, ilm olishi, komil inson bo'lishiga alohida e'tibor berib kelmoqda. Istiqloq tufayli komil inson ta'limoti, jamiyat taraqqiyotida inson omili, mamlakat, xalqning, millat ma'naviy qudrati rivojining ustuvor masalasiga aylandi. Islom Karimov XXI asrda komil inson ta'limotini rivojlantirdi: "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".

Bugungi kunda jahon hamjamiyati e'tirof etayotgan taraqqiyotning o'zbek modeliga asos bo'lgan Islom Karimovning "O'zbekistonning o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'li" asarida mamlakatimiz rivojlanishining ma'naviy axloqiy negizlari hayotda o'z isbotini topmoqda.

Yurtboshimizning "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" haqidagi ta'limoti, Kadrlar tayyorlash milliy modeli barkamol avlod mazmun va mohiyatini, metodologiyasini belgilab berdi. Fanda barkamol avlod nazariyasiga asos solindi.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy fozil fuqaro shahrini, ma'rifatli jamiyatni orzu qilgan bo'lsa, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov butun bir barkamol avlod ta'limotining ilmiy va amaliy asosini yaratdi. Buning zamirida yuksak insonparvarlik har bir yoshning kamoli uchun g'amxo'rlik va Vatan, millat ravnaqi mohiyati o'z ifodasini topgan. Kadrlar tayyorlash milliy modelida uzluksiz ta'lim tizimining barkamol avlodni shakllantirish imkoniyatlari va vazifalari belgilab berildi.

Jumladan, maktabgacha ta'limning yangi kontsepsiyasi yaratildi. Chunki hanuzgacha maktabgacha tarbiya deyilsa, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori sifatida belgilandi. "Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-etti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi".

Demak, barkamol avlodni shakllantirishda maktabgacha ta'lim muhim o'rin tutadi. Birinchidan, maktabgacha ta'lim tizimi bolaning dunyoqarashi shakllanishining muhim bo'g'ini, asosiy omildir. Bu qonuniyat Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ilmiy asoslangan. Yurtboshimizning XXI asrda barkamol avlod tarbiyasi mazmun-mohiyatini ilmiy asoslab beruvchi ushbu asari tom ma'noda qomusiy qo'llanmadir. Unda ta'lim-tarbiyaning barcha sohalari, xususan, maktabgacha ta'limning barkamol avlodni shakllantirishdagi o'rni alohida ko'rsatilgan. "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning yetmish foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu davrda uning qalbida, oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi"- degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

Odamsod uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlarga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi". Demak, kishi harakteri asoslari 5-6 yoshgacha shakllanadi, undan keyingi tarbiya – qayta tarbiyalashdir degan ilmiy xulosalar ham buning isbotidir.

Ikkinchidan, maktabgacha ta'lim-tarbiya imkoniyatlari, samaradorligi ham bu davrga e'tibor qaratishni taqozo etadi. "Yoshlikda olingan ta'lim – toshga o'yilgan yozuv"ga o'xshatilishi ham maktabgacha ta'lim ahamiyatidan dalolat beradi. "Yosh novda yoshdigida oson egilishi"ni maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasiga o'xshatilishi ham hayotiy haqiqatdir.

Uchinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiya tizimida to'la qamrab olish imkoniyati, uning ommaviyligi ham barkamol avlodni shakllantirish muhim omil ekanligidan dalolat beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim-tarbiya bilan barcha davlat va nodavlat bolalar muassasalari, oila instituti, mahalla instituti, jamoat tashkilotlari uzviy bog'liqligi, hamkorligi maktabgacha ta'limni maqsadli amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Darhaqiqat, barkamol insonlarni voyaga yetkazish davlatimiz rivojidagi bosh vazifalardan biri bo'lib, farzandlarimizning ilmi, hunarli, odob-axloqli qilib hayotga tayyorlash umumxalq, umumdavlat ishidir.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot modelida barkamol avlod haqidagi Islom Karimov ta'limoti jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Barkamol avlod tarbiyasining asosini, poydevorini tarkib toptiradigan maktabgacha ta'lim mustaqillik davrida yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog'chalari hamda "Bolalar bog'chasi-maktab" majmui tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq (1997y) guruh tashkil etilgan.

Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgartirishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmadi.

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya ahvoli qoniqarsizligicha qolmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalarning 25 foizigina maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olingan, xolos. Maktabgacha bolalar muassasalaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

O'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi jami tarbiyachi va pedagoglarning atigi 20 foizi oliy ma'lumotlidir.

Maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy metodik takomillashtirish zarur:

- yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni hozirgi zamon pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlash;
- o'rta maxsus va oliy ta'lim bitiruvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashni takomillashtirish;
- oila pedagogikasi asoslarini o'rgatishni joriy etish;
- maktablar va mahalla qoshida ota-onalar maktablarini tashkil etish, mahallalar xodimlarini maktabgacha pedagogika, psixologiya fanidan malakasini oshirish;
- maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish, ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;
- radio, televidenie, ommaviy axborot, bolalar adabiyotining pedagogik qonuniyatlarga asoslanganligi kabilar.

Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi bo'yicha universitetimizda talabalarning tahsil olishi shu sohaning yanada ravnaq topishidan dalolatdir. Albatta, viloyatdagi besh yuzga yaqin maktabgacha ta'lim muassasalarini yuqori malakali tarbiyachilar bilan ta'minlash uchun hozirgi kontingent juda kam. Ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarini nomutaxassislar boshqarayotgani ham bu borada ko'p ish qilishimiz kerakligini ko'rsatadi. Shuningdek, pedagogika kafedralari bilan birgalikda ijtimoiy-gumanitar kafedralarning professor-o'qituvchilari ham maktabgacha ta'lim mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir.

“Maktabgacha ta‘lim” atamasi 1997 yilda YUNESKO qarori bilan kirgizilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni kuchga kirgan kundan boshlab, maktabgacha ta‘lim muassasa (MTM)larida tatbiq etilib kelinmoqda.

Inson shaxsi ijodkorining yuksak talablarini qanoatlantirish uchun bolalar bog‘chasining tarbiyachisi qanday bo‘lishi kerak?

U avvalo bolalarni sevishi kerak, chunki tarbiya – katta sabr-qanoat va qalb sahovatini talab qiladigan uzoq davom etuvchi jarayondir.

Tarbiyachi o‘z Vatanining vatanparvari bo‘lib, davlat va jamiyatning maqsadini aqli va qalbi bilan idrok etgan, yosh bolalarni milliy mafkuraviy ruhda tarbiyalash haqidagi fanni egallagan kishidir.

Tarbiyachi pedagogika, psixologiya fanlari va ilg‘or tajriba yutuqlaridan foydalanib, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib boradi.

Tarbiyachi hozirgi bolalar qiziquvchanligini qondirish, unga atrof-muhitni bilib olishga yordam berish uchun xilma-xil zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi zarur.

Tarbiyachi bolalar va ularning ota-onalari oldida obro‘ga ega bo‘lib, oila bilan birgalikda tarbiyaning mas‘uliyatli vazifalarini hal etishi kerak.

Shuni doimo yodda tutish lozimki, mamlakat tarbiyachilarga eng qimmatli narsani – o‘z kelajagini ishonib topshirgan.

Tarbiyachilarning ana shu safiga mansub bo‘lishlikdan faxrlanish, davlatimizning yuksak ishonchini oqlashga harakat qilish darkor.

Tarbiyachining pedagogik mahorati ko‘p qirralidir. U professional tayyorgarlikdan, nazariy bilimi va ish tajribasini doimo oshirib borishdan, bolalarga bo‘lgan muhabbatdan vujudga keladi.

Yuksak madaniyatli, psixologiya va bolalar bilan ishlash metodikasini yaxshi biladigan, katta obro‘ va pedagogik nazokatiga ega bo‘lgan kishigina ta‘lim va tarbiya san‘atini egallab olishi mumkin. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlash uchun yuqoridagilardan tashqari ashula aytish va raqsga tushishni, chiroyli harakatlar qilishni, to‘g‘ri gapirishni bilish, badiiy o‘qish malakalarini ham egallagan bo‘lish kerak. Chaqqon va mohir qo‘lli tarbiyachigina kichkintoylar oldida katta obro‘ga ega bo‘ladi.

A.S.Makarenko bunday deb yozgan edi: *“Tarbiyachining mahorati iste‘dodni talab etadigan qandaydir alohida san‘at emas, lekin u mutaxassislik, shifokorni shifokorlik mahoratiga, musiqachini musiqachilikka qanday o‘rgatish kerak bo‘lgani kabi uni (tarbiyachini) ham shu mahoratga o‘rgatish zarur”.*

Tarbiyachining mahorati asta-sekin shakllanib boradi.

Oliy maktabning o‘rta maktabga nistabatan xususiyatlari.

Oliy maktabning oʻrta maktabga nisbatan farqini aniqlash uchun dastlab oliy maktabning asosiy yoʻnalishlarini belgilab olish kerak. Bu yoʻnalishlar quyidagilardan iborat:

Oliy maktabda beriladigan bilimlar hajmini oʻrta maktablarga nisbatan hajmi va mazmuni jihatidan ustunligi.

Oʻqitiladigan bilimlarning ixtisosligi.

Nazariy bilimlar bilan amaliy bilimlarni bir-biri bilan oʻzaro bogʻlanishi va toʻldirib borishi.

Agarda oʻrta maktabda taqdim qilinadigan bilimlar darslik hajmida boʻlsa, oliy maktabda 5-10 darslik hajmida qoʻllanma boʻladi. Bularning har biri chuqur bilim olishga xizmat qiladi. Pedagogik, psixologik masalalar bilan bogʻlangan qaror va tushuntirishga eʼtibor beriladi.

Oliy maktabda yosh jihatidan yuqori boʻlgan (17 yoshdan yuqorisi) yigit va qizlar taʼlim oladilar. Ular tartib-intizom jihatidan shakllangan boʻladilar, ota-onalar majlisi tez-tez chaqirib turilmaydi.

Oʻrta maktabda talabalning oʻzlashtirish darajasi muntazam tekshirib boriladi. Oliy maktabda reyting tizimi joriy qilingan. Oʻrta maktabda fanlar dars sifatida oʻrganiladi. Oliy maktabda maʼruza va amaliy mashgʻulotlar asosida tushuntirishga ahamiyat beriladi.

Oliy maktablarda talabalarning mustaqil ishlarini amalga oshirishga alohida ahamiyat beriladi.

Shunday qilib, oliy taʼlim oʻzining bilim darajasi bilan oʻrta taʼlimdan keskin farq qiladi. Bunday yuqori darajada bilim berish uchun mustaqil ishlashga alohida ahamiyat beriladi.

OʻZ-OʻZINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. “Mutaxassislikka kirish” fani nima uchun pedagogik fanlar tarkibidan oʻrin olgan?
2. Fanni oʻrganish usullari haqida tushuncha bering?
3. “Mutaxassislikka kirish” fani oʻz predmetini oʻrganishda qaysi fanlar bilan aloqada boʻladi?
4. “Mutaxassislikka kirish” fanini oʻqitish nima uchun kerak?
5. “Mutaxassislikka kirish” fani nimani oʻrgatadi, uning qanday vazifalari bor?
6. “Mutaxassislikka kirish” fanining mazmunida nimalarni oʻrgatish maqsadi yotadi va uning mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday?
7. Mutaxassis deganda kimni tushunasiz?

2-mavzu: OLIY TA‘LIMDA TARBIYACHINI TAYYORLASH VAZIFALARI.

R E J A:

- 1. Oliy ta‘limda o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi.**
- 2. Oliy o‘quv yurtining talabasi. Talabaning huquq va majburiyatlari.**
- 3. Bo‘lajak tarbiyachining shakllanishi. Talaba – tadqiqotchi.**

Asosiy tushunchalar: ta'limning mazmuni, o'quv rejasi, o'quv fani, o'quv semestri, o'quv yili, o'quv fani dasturi, oliy o'quv yurtining talabasi, uning huquqlari, majburiyatlari.

Oliy ta‘limda o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi.

- Oliy ta'limning atamalari:
 - **oliy ta'limning mazmuni** - davlat ta'lim standard talablari asosida belgilanadi, o'quv rejasi, o'quv fani, dasturi, darslikda ifodalanadi;
 - **o'quv rejasi** - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv fanlari turlari, fanlarining tarkibi, ularni o'rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy hujjat;
 - **o'quv fani** — ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, malaka va ko'nikmalar tizimi;
 - **o'quv semestri** — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi;

- **o'quv fani dasturi** — ta'lim mazmuni, uni talabalar o'zlashtirishining eng muqobil usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat;

- **o'quv yili** — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim fanini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri, u ikki kalendar yili bilan (2001-2002) belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning asosiy vazifalari:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb-hunar dasturlari asosida ta'limni tashkil etish;

- O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish istiq- bollari, demokratik jamiyat qurish talablariga binoan fan, texnika, ilg'or texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlarni o'qitish va tarbiyalash usullarini muntazam takomillashtirish;

- talaba yoshlarni mustaqillik mafkurasi, milliy istiqloq g'oyasi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni egallashi asosida vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

-o'quv amaliyotiga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish, ta'limni individuallashtirish, masofaviy ta'lim vositalari bilan ta'minlash;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvining amaliy tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish;

- ilmiy-pedagogik kadrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy- ijodiy faoliyatlari orqali fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatli muhitni yaratish;

- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, ular mustaqilligini kengaytirish; ta'sischi, vasiylar, jamoat kuzatuv nazorati shaklida yangi jamoat boshqaruvini shakllantirish;

— oliy ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining uchta turi joriy etilgan:
universitet, akademiya, institut.

- **Universitet:** a) ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi; b) kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotini bajaradi; d) fanlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajaradi; e) bilimlarning tegishli sohalari bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz vazifasini bajaradi.

- **Akademiya:** a) muayyan bilim sohasi va kadrlar tayyorlash yo'nalishi bo'yicha oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy dasturlarini amalga oshiradi; b) ma'lum sohalarda uchun oliy ma'lumotli kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi; d) fan,

madaniyat, san'at sohalari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajaradi; g) o'z faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

- **Institut:** a) odatda, ta'limning bir sohasi doirasida oliy va undan keyingi ta'limning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi; b) xalq xo'jaligining ma'lum sohasi uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi; d) amaliy va fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradi.



2-rasm.

Oliy ta'limning tashkiliy masalalari

1. Oliy maktabda o'quv-tarbiyaviy ishlar O'zbekiston davlatining me'yoriy hujyatlari asosida tashkil etiladi.

2. Oliy ta'lim muassasasida o'quv mashg'ulotlarining quyidagi turlari joriy qilingan: ma'ruza, maslahat, seminar, amaliy mashg'ulot, mustaqil ish, amaliyot, fan ishi (loyihasi), malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash.

3. Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 minutlik (tanaffussiz juft ma'ruzalar uchun 40 minutlik) akademik soat joriy etilgan.

4. Oliy maktabda o'quv yili, odatda, ikki semestrga bo'linadi, ulardan har biri talabalar o'zlashtirishi natijalari yakunlanishi bilan tugallanadi.

5. Talabalarining fanlarni o'zlashtirishi «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz» baholarda joriy, oraliq, yakuniy nazorat ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. Oliy o'quv yurtini bitirish vakolatli davlat idorasi tasdiqlagan nizomga binoan yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi. Malakaviy amaliyotning barcha turlari davlat va nodavlat korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ular bilan oliy ta'lim muassasasi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan o'quv rejalari va malakaviy amaliyot haqidagi namunaviy nizomga muvofiq o'tkaziladi.

6. Oliy ta'lim dasturlarini kunduzgi, sirtqi, eksternat va masofaviy ta'lim olish shakllarida o'zlashtirish mumkin. To'lov - kontrakt asosida o'zga shaklda ikkinchi tur ta'lim olishga ham yo'l qo'yiladi.

7. **Eksternat** — oliy ta'limning tanlangan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha kasbiy ta'limga muvofiq fanlarni mustaqil o'zlashtirish va ta'lim muassasasida davriy (joriy va yakuniy) attestatsiyadan o'tishdir.

8. **Masofaviy ta'lim** — oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlarini, asosiy faoliyatdan ajralmagan holda, ta'lim muassasasidan uzoqda o'zlashtirish. U zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalari, texnik vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Eksternat va masofaviy ta'lim vakolatli davlat idorasi tasdiqlagan nizomga binoan amalga oshiriladi.

9. Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishi amaldagi qonunlarga muvofiq turli shakllarda amalga oshiriladi.

10. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va dunyoqarashi milliy istiqloq g'oyasi; ta'limning insonparvarlik mazmunida bo'lishi; ilg'or milliy madaniy urf-odatlar, an'analar, umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantiriladi.

Oliy maktabda ta'limning maqsadi, xususiyatlari

Ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy qismi hisoblanadi. **Zamonaviy** pedagogika fanida o'quv jarayoni talaba bilan professor - o'qituvchining hamkorligidagi faoliyatidir. **Talaba** o'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'qish, bilim o'zlashtirish faoliyati orqali ijtimoiy-gumanitar, matematik-tabiiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini, kasb faoliyatining asosiy g'oyalarini o'zlashtirib oladi, shu asosda uning dunyoqarashi shakllanadi; ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotni o'tash natijasida bo'lajak mutaxassisda tanlangan kasbiga doir ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning maqsadi - Vatanimizni rivojlangan demokratik mamlakatlar darajasida ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'sha oladigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar yetishtirishdan iborat.

Oliy o'quv yurtining talabasi

1. Oliy o'quv yurtining talabasi belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ta'lim sohasining biror yo'nalishi yoki muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qishga qabul qilingan kishidir. O'qishga kirgan yigit, qizga rasmiy nusxadagi talabalik guvohnomasi va reyting daftarchasi topshiriladi. U shu o'quv yurti talabalari jamoasining a'zosi hisoblanadi va «Oliy ta'lim haqida nizom» (1998)da belgilangan huquq va burchlarga amal qiladi.

2. **Talabaniing maqsadi** — mamlakatda mavjud oliy ta'limning maqsadi, vazifalariga mos bo'lib, oliy ma'lumot olish, barkamol shaxs, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlariga ega yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishdan iborat.

3. Talabaniing me'yoriy hujjatlarda belgilangan **huquqlari**, jumladan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— oliy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan bilimlarni fan, texnika va madaniyatning zamonaviy rivojlanish darajasida egallash;

— o'quv rejasida ko'rsatilgan qo'shimcha fanlarni tanlash;

— ta'lim muassasasi faoliyatining muhim masalalarini muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

— kutubxona, axborotlar fondi, kompyuter markazi, o'quv, ilmiy, tibbiy va boshqa bo'linmalar xizmatidan tekin foydalanish;

— ilmiy tadqiqot ishlari, anjumanlar, simpoziumlarda ishtirok etish, o'z ilmiy ishlarini chop ettirish kabilar.

4. Oliy ta'limning davlat ta'lim standard talablari darajasida bilimlar, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash; ko'rsatilgan muddatlarda o'quv rejalari va dasturlarida ko'zda tutilgan barcha topshiriqlarni bajarish, ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalari, axloq-odob normalariga rioya qilish; jamoat tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish talabalik burchi hisoblanadi.

5. **Oliy o'quv yurtining talabasi** balog'at (yetuklik) yoshidagi inson. U o'rta umumiy ta'lim maktabi, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida fan asoslarini o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti darajasida o'zlashtirgan, muayyan o'qish tajribasiga ega. Oliy ta'lim muassasasida u, maktab- dagidan keskin farq qiladigan shart - sharoitlarga duch keladi va bu yangi tartib-qoidalarni bilib olishi, ularga ko'nikma (adaptatsiya) hosil qilishi zarur.

6. Talabaning oliy o'quv yurtida o'qish davri, asosan, **18-25 yoshlarga** (yoshlik davriga) to'g'ri keladi. Bu davr ruhiy jihatdan bir qancha muhim xususiyatlarga ega bo'lib, ayrim ziddiyatlarni ham o'z ichiga oladi.

O'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarda aqliy faoliyatining barcha tomonlarini izchil ravishda o'stirib, ularni oliy maktabda ta'limni davom ettirishga tayyorlaydi. Mustaqil fikrlashning tahlil va sintez qilish, mavhumlash va umumlashtirish sifatlari o'rta maktabda shakllana boshlaydi, oliy o'quv yurtida esa ular o'sib kamolatga erishadi.

Oliy o'quv yurti talabasida tanqidiy mulohaza yuritish qobiliyati kuchli bo'ladi. Bu yosh davri o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini baholash davridir. Oliy o'quv yurtiga kirish va o'qishning dastlabki oylarida mavjud bo'lgan umid, ko'tarinki ruh, ba'zan, o'quv tartibi va professor-o'qituvchilardan ayrimlariga ishonchsizlik munosabati bilan almashinadi.

7. Yoshlik davri kishi hayotida aqliy o'sish, intellektual rivojlanish uchun eng qulay, samarali yillar hisoblanadi. Bu davrda talabalarning qiziqishlari doirasi kengayadi, ular faqat o'qish bilangina cheklanib qolmay, san'at, sport, jamoat ishlari, shaxsiy turmush masalalari bilan ham shug'ullanadilar. Bu davrda kishi muayyan bir kasb yo'nalishi, mutaxassislikni tanlab o'z hayot yo'lini belgilaydi, kasb egallaydi, turli sohalarda o'z kuch- qobiliyatini sinab ko'radi. U o'z

e'tiqodi, fikri va harakatlarini faol quwatlaydi. Bu davrda egallangan bilimlarni, ma'lum hayotiy tajribani, o'zining mustaqil fikri, xatti-harakatlarini umumlashtirish asosida kishida dunyoqarash, axloqiy va estetik did shakllanadi. Muhabbat, nikoh, oila kabi bir qancha tushunchalar nazariy tasavvurlardan amaliy faoliyat sohasiga aylanadi.

8. Talabalik davrining muhim xususiyatlaridan biri— shaxsiy turmush tarzi va ijtimoiy faoliyatida mustaqillikning kuchayishidir. Endi u turmush tarzi bilan bog'liq bir qancha hayotiy masalalarni amalda o'zi mustaqil hal etishiga to'g'ri keladi. Ko'pchilik talabalar boshqa shaharga borib, oiladan uzoqda talabalar turar joylarida, qarindoshlarinikida yoki shaxsiy kvartiralarni ijaraga olib yashaydi, o'zining turmush ehtiyojlarini mustaqil qondiradi. Tanlagan kasbga doir bilimlarni egallash masalasida ham mustaqil ishlar, mustaqil ta'limning salmog'i va ahamiyati keskin ortadi.

9. Talabalik yillarida yoshlarda barkamol shaxsga xos fazilatlar, ayniqsa, professional axloq, kasb odobiga oid sifatlar jadal shakllanadi. Talabalik davrida yoshlarning turli xil axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy masalalarga qiziqishlari, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarga tanqidiy munosabati kuchayadi, yoshlarning fikri, qarashlari adolatli bo'lishi ham, ba'zan yuzaki bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun bu davrda ma'naviy-axloqiy tarbiya, mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasini egallashning ahamiyati nihoyatda ortadi.

10. Talabalik davrida yoshlar jismoniy jihatdan balog'atga erishadi, estetik shakllanishi nihoyatda kuchayadi. Yoshlarning fizkultura va sport sohasida erishadigan jahonshumul yutuqlari, ko'pincha, shu yosh davriga to'g'ri keladi. Bu davrda yoshlarning jismoniy va aqliy rivojlanish imkoniyatlari eng yuqori darajada bo'ladi, ta'lim - tarbiya jarayonida bu ruhiy xususiyatlar, albatta, e'tiborga olinishi lozim.

Talabani huquq va majburiyatlari

Talabalarni qonun va huquq yuzasidan tarbiyalash. Talaba deganda - o'zi izlanuvchan, bilimga chanqoq insonni tushiniladi. Talaba huquqi o'qituvchilarni o'z vaqtida bilim berishini talab qilishi kerak.

Talabalar darsdan tashqari xoxlagan o'qituvchidan dars olish huquqiga ega. Biror bir talaba o'qituvchilikda ukisa u xoxlagan she'r va kichik kitoblar yozishi mumkin. Mualliflik huquqi fukarolik huquqining muxim universitetlaridan biri bulib, u fan, adabiyot va san'atlarini yaratish va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarini ifodalaydi. Talabani mualliflik huquqi ob'ektiv fan, adabiyot va san'at asarlari hisoblanadi. Bunday asarning kadr-kiymati va chop etilgan yoki etilmaganligining axamiyati yuk. Agar mualliflik huquqining ob'ekti tan olinishi uchun qonun ikki shartni kuyadi: birinchidan, asar ma'lum bir ob'ektiv shakl muallif ijodiy faoliyati natijasini aks ettirishiga imkon berishi mumkin.

Agar respublika hududida birinchi marta bosilib chiqarilgan yoki bosib chiqarilmagan bo'lsa-da, lekin birdan-bir ob'yektiv shaklda respublika hududida bo'lgan asar uchun u qaysi mamlakat fuqorosi bo'lishidan qat'iy nazar, talabaning mualliflik huquqi beriladi. Talabaning mualliflik huquqi bo'lib, muayyan asarning yaratuvchisi hisoblanadi. Talabaning mualliflik huquqini faqat uning hayotlik vaqtida emas, balki hamma vaqt himoya qilinadi.

Talabalarning vazifasi vaqtida darslarga qatnashib turish va yaxshi o'qib, undan yaxshi mutaxassis bo'lishi uning vazifasi. Ta'limning davlat boshqaruvining maxsus vakolati bo'lgan organlar amalga oshiradilar. Ta'lim muassalarida davlat talablarining va me'yoriy hujjatlarni bajarilishini ta'minlaydilar, ularga uslubiy raxbarlikni amalga oshiradilar.

Ushbu darslik talabalarga davlat va huquqning kelib chiqishi, jamiyat taraqqiyotida ularning o'rmini yanada mustaxkamlash vazifalari to'g'risidagi bilim asoslarini berishini nazarda tutadi.

Konstitutsiya xalq ta'limini ma'muriy-huquqiy boshqarish masalalariga oid printsiplial qoidalarini oldindan belgilab beradi. Konstitutsiyaning 41-moddasi ma'muriy huquqiy sub'ekti sifatida har bir fuqarolik talabaning bilim olishini mustahkamlaydi. Talabaga o'qishdan tashqari ta'lim madaniy estetika tabiiy-ilmiy, texnik sport va boshqa yo'nalishlardagi o'qishdan tashqari muassalarda tashkil qilinadi. Oliy ta'lim umumiy o'rta, xunar-texnika, o'rta maxsus ta'lim negizida oliy o'quv yurtlari talabalariga amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish ishlari ikki bosqich asosida bakalavriat va magistritura darajalari berish bilan olib boriladi.

Bunday o'qitishni tashkil etish Respublika xukumati tomonidan tasdiqlangan "Nizom"da tartibga solinadi. Hukumat tomonidan yana ixtisoslik ro'yxati belgilanadi, ularni sirdan yoki mustaqil o'qib egallashga yo'l ko'yilmaydi. Talabalar ikkinchi oliy ma'lumotni pul to'lab olish huquqiga egadirlar. Oliy o'quv yurtlarining faoliyati o'zlarining nizomlari bilan tartibga solinadi. Oliy o'quv yurtlarining o'zlari vaqti-vaqti bilan attestatsiya va akritizatsiyadan o'tib turadilar. O'zliksiz ta'lim tizimidagi oliy bosqich ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash hisobga oladi. Ana shu maqsadda ilmiy ishlab chiqarish bo'limlari, student talabalar ilmiy texnika ijodiyoti markazlari tashkil etiladi. Ta'lim muassasalarini boshkarishda talabalar katnashadilar. Talabalar stipendiyalar, yotokxonalar, ko'llanmalar va boshqalar bilan ta'minlanadilar. Ularga kutubxonalar, o'quv ishlab chiqarish, ilmiy, sport, sog'lomlashtirish bazalaridan foydalanishni kafolatlaydi.

Talabalarni huquq yuzasidan tarbiyalash. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risidagi" Qonunlari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy va iqtisodiy soxalarda olib borilayotgan isloxatlar talablari darajaga ko'tarish, kadrlar

bilimi va ular tayyorgarligi sifatini nazorat qilish xamda xolisona baholash tizimini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1998 yil 11-martdagi 109-sonli qaroriga asosan belgilangan. Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish pedagogik Mutahassis tayyorlash kerak.

Talaba yurtimizning demokratiyalashtirish imkoniyatlarni aniq va chuqur his eta bilishi kerak. Asosiy Qonunga O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi dunyo miqyosida eng mukammal demoqratik Konstitutsiyalar sifatida o'rin egallaydi. Talabaning Konstitutsiyani ishlab chiqarish va uni qabul qilishning o'zi eng zamonaviy demokratik asosda sodir bo'lganini anglashi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Talaba shu munosabat bilan bir narsani chuqur anglab olmog'i zarurki, O'zbekiston hududida, fuqorolik jamiyatining ayrim muxim negizlari qadim-qadimlardan mavjud ekan. Talabaga mulkiy munosabatlarni iqtisodiy soxa demokratiyalashuvining bosh bo'g'ini va uning fuqorolarda ulkan saloxatini vujudga keltiruvchi omil sifatida anglatish zarur:

- kadrlar tayyorlash sifati monitorining tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
- rivojlangan xorijiy demokratik davlatlar bilan kadrlar sifatini nazorat qilish va ta'lim muassasalari attestatsiyasi borasida xamkorlik o'rnatish;
- ta'lim tizimini boshqarish organlari xamda maxalliy ijro etuvchi xokimiyatining pedogog kadrlar va ta'lim muassasalari tashkil etish va o'tkazish borasidagi faoliyatini muvofiklashtirish va nazorat qilish kerak.

Talabalarga yaxshi dars berib ulardan yaxshi kadrlar chiqishini taminlash shu kunning asosiy vazifalaridan biridir.



5-rasm. Talabalik maqomi.

Oliy maktabda ta'lim ishlarini tashkil etishga me'voriy talablar

1. Oliy o'quv yurtida o'quv - tarbiya ishlari O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan Oliy ta'limning davlat ta'lim standartini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Auditoriyada mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 (yoki tanaffussiz juft ma'ruzalar uchun 40) minutlik akademik soat joriy etilgan. Mashg'ulotlar o'rtasidagi tanaffus, odatda, 10 minutdan kam bo'lmasligi lozim.

2. Oliy maktabda ¹ o'quv yili ikki semestrga bo'linadi, o'quv semestri talabalar o'zlashtirishi natijalarini yakunlash bilan tugallanadi. Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz» baholarga muqobil reyting ko'rsatkichi - ballar orqali aniqlanadi.

3. Talabalarni fandan-fanga o'tkazish fakultet dekanining taqdimiga binoan rektorning buyrug'i bilan amalga oshiriladi, shartli ravishda o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Oliy o'quv yurtini bitirish yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallandi.

4. Malakaviy amaliyotning barcha turlari o'quv rejaları va nizomga muvofiq davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda shartnomaga binoan o'tkaziladi.

5. Oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlari: kunduzgi, sirtqi, eksternat va masofaviy ta'lim olish shakllarida o'zlashtirilishi mumkin. To'lov - kontrakt asosida o'zga shaklda ikkinchi tur ta'lim olishga yo'l qo'yiladi.

Eksternat—oliy ta'limning tanlangan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha kasbiy ta'limga muvofiq fanlarni mustaqil o'zlashtirish va ta'lim muassasasida davriy (joriy, yakuniy) attestatsiyadan o'tishdan iborat.

Masofaviy ta'lim — oliy ta'lim kasbiy ta'lim dasturining ish faoliyatidan ajralmagan holda, ta'lim muassasasidan uzoqda zamonaviy axborot texnologiyalari va teletarmoqlar texnikasi vositasida o'zlashtirishdir.

6. Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'lanishi amaldagi qonunlarga muvofiq o'quv - ilmiy, o'quv — ishlab chiqarish majmualari, birlashmalari, assotsiatsiyalari tuzish yo'li bilan hamda yirik olim va mutaxassislarni o'quv jarayoniga taklif etish va ilmiy tadqiqot institutlari, korxonalar va tashkilotlarda oliy ta'lim muassasasining markazlari, laboratoriyalari, kafedralari va bo'limlarini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7. Oliy ta'lim muassasasi talabalar safidan, shuningdek, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy ta'lim muassasalari o'quvchilari bilan olimpiadalar, konfanlar, test sinovlari tashkil etib, **iste'dodli yoshlarni tanlash** ishlarini amalga oshiradi, ularga o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun sharoitlarni yaratadi.

8. Oliy maktabda yoshlarning yuksak ma'naviy - axloqiy sifatlarini shakllantirish ta'limni insonparvarlik mazmunida bo'lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, milliy istiqlol g'oyasi va mustaqillik mafkurasiga asoslanganligi bilan ro'yobga chiqariladi.

Oliy maktabda ta'limning shakl - usullari

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «Nizom»ga binoan oliy maktablarda o'quv mashg'ulotlarining ma'ruza, maslahat, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyot, fan ishi, malakaviy bitiruv ishi, magistirlilik dissertatsiyasini tayyorlash kabi shakl - usullari joriy etilgan.

2. **Ma'ruza** - oliy o'quv yurti ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llanib kelinayotgan shakl - usullardan biridir. Ma'ruzalarda qatnashish majburiy hisoblanadi, unda talaba kasbiy tayyorgarlik uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi.

Ma'ruzalar mazmunida muayyan fandagi muammolar, nuqtai nazarlar, manbalar, g'oyalarning mazmuni ochib beriladi, umumlashtiriladi. Ma'ruzalarni tinglay bilish, muhim o'rinlari, asosiy g'oyalarni yozib olish maqsadga muvofiq.

3. **Ma'ruza** jarayonida professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasida bevosita aloqa o'rnatiladi, ma'ruza mazmunida hali darslikka kirmagan yangi fikr va g'oyalar, yangi nuqtai nazarlar bayon qilinadi. Ma'ruza talabaga bilimlar olamiga kirish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'ruzachi, odatda, o'quv dasturining butun mazmunini emas, balki muhim, murakkab joylarini aniqlab, uni ochib beradi, fandagi farazlarni keltirib, mustaqil fikr yuritishga undaydi, muammolar qo'yib, uni hal qilish yo'llarini ko'rsatadi.

Ayniqsa, quyi fanlar talabalari uchun ma'ruzalar muhim rol o'ynaydi, chunki ma'ruza talabani fan olamiga olib kirish bilan birga bilimlarni mustaqil egallashning manbalari, yo'llari, vositalarini ko'rsatadi. Professor - o'qituvchi ma'ruzada qarama-qarshi fikrlar, nuqtai nazarlarni aytadi, talaba manbalar ustida mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash yo'li bilan ilmiy xulosalarga keladi.

4. Oliy maktabda ma'ruza o'qish, odatda yuqori malakali, tajribali domlalar (professor, dotsentlar)ga topshiriladi. Ma'ruzada hozirgi zamon fani — mamlakatimiz va chet el olimlarining erishgan muvafiqiyatlari haqida ilmiy axborotlar beriladi.

5. **Ma'ruzalar** kirish, mavzular bo'yicha, umumlashtiruvchi (obzor) turlarga bo'linadi. Har bir fandan o'qiladigan nazariy fanlar kirish ma'ruzasidan boshlanadi. Unda ushbu o'quv fanining shu fandagi o'rni, oliy maktabda o'rganiladigan boshqa fanlar bilan aloqasi, bog'liqiigi ko'rsatiladi; fan mazmunida ochib beriladigan asosiy ilmiy muammolar, muhim masalalar qayd etilib, ushbu fanni o'rganishning umumiy maqsadi, obykti, predmeti. vazifalari bayon etiladi. Fanning metodologik asoslari va metodlari, manbalari, o'ziga xos xususiyatlari, arnaliy ahamiyati ko'rsatiladi.

6. **O'quv fanining mavzulari** bo'yicha ma'ruzalar o'quv dasturida ko'rsatilgan mavzularga ajratilgan vaqt (soatlar)ga muvofiq o'tkaziladi. Ularda fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida erishilgan yutuqlar, isbotlangan nazariyalar, asosiy tushunchalar, qonunlar, mavjud munozarali masalalar, nuqtai nazarlar, masalaning tarixi, erishilgan darajasi, nazariy va arnaliy ahamiyati izchil tarzda bayon qilinadi.

7. **Umumlashtiruvchi, yakuniy ma'ruzalar** odatda, nazariy fanni o'rganishning oxirida yakuniy davlat attestatsiyasi oldidan o'tkaziladi. Bunda shu o'quv fani tinglangandan so'ng o'tgan davr ichida ushbu fan olamida sodir bo'lgan o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar, kashfiyotlar. chop etilgan asarlar haqida axborot beriladi.

8. **Amaliy mashg'ulotlar** — oliy maktabda ma'ruzalar mazmunidagi muhim masalalarni chuqurroq va puxta o'rganish, talabalarining bilim o'zlashtirishi, mustaqil ishlarining sifatini aniqlash va to'ldirish, mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar, odatda, kichik guruhlarda olib boriladi. Bu mashg'ulotlarni ko'pincha assistentlar, yosh o'qituvchilar olib borishadi. Amaliy mashg'ulotlarga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, talabalarining o'z bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilgan mustaqil ishlari uning sifatli o'tishini ta'minlaydi. Bu mashg'ulotlar talabalarni mustaqil ishlash malakasini egallashga; kitob va boshqa manbalar bilan ishlash, faktlar, ilmiy axborotlar to'plash, ularni tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirishga o'rgatadi.

9. **Seminar mashg'uloti** — oliy maktabda ta'limning amaliy shakl- usullaridan biri bo'lib, dastur materialini jiddiy va chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Oliy ta'limning davlat ta'lim

standartiga binoan bakalavriat yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalarida seminar va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt (soat) ajratiladi.

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish talabdan jiddiy e'tibomi talab etadi. Talaba, avvalo, seminar mavzusiga oid ma'ruzani qunt bilan tinglashi, seminar rejasi bilan tanishishi, zarur adabiyotni tanlashi, tavsiya qilingan manbalarni o'rganib, matn tayyorlashi, so'zga chiqib gapirib berish uchun tayyor bo'lishi zarur. Bu ishlar talabdan ko'p vaqt va mehnatni, jiddiy o'quv - biluv faoliyatini talab etadi. Seminar mashg'uloti bahs-munozarali tarzida bo'lishi mumkin, bu seminar mavzusiga, darslikning bor - yo'qligiga, guruhning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Seminarda faol qatnashish talabaning bilim o'zlashtirish sifatini oshiradi, nutq madaniyatini o'stiradi.

10. **Laboratoriya ishlari** - oliy maktabda egallanadigan ijtimoiy-gumanitar, kasbiy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga xizmat etadi. O'rganilgan nazariy bilimni amalda, tajribada sinab ko'rish yo'li bilan uni mustahkamlaydi, kasbni egallashga yo'l ochadi. Laboratoriya ishlari tadqiqot xarakteri (tavsifi)ga ega bo'lib, kuzatish, tajribada sinab ko'rish yo'li bilan masala (muammo)ga doir faktlar to'plash, ularni umumlashtirib, nazariy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

11. Oliy maktabning o'quv mashg'ulotlari jarayonida barcha talabalarning o'rganilayotgan fan yuzasidan bilim o'zlashtirish darajasini, mustaqil ishlari va tayyorgarliklarining sifatini **nazorat qilish va baholash** maqsadida ko'p balli reyting tizimi; joriy, oraliq, yakuniy nazorat turlari; baholashning og'zaki, yozma, test shakl - usullari qo'llaniladi.

12. **Malakaviy amaliyot** - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «Nizom» (1998) asosida o'tkaziladi. Nizomda malakaviy amaliyotni o'tkazish tartibi, shakl-usullari belgilanadi. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan malakaviy amaliyot ilg'or korxonalar, muassasa va tashkilotlarda o'tkaziladi. Malakaviy amaliyot oliy maktabda o'qish jarayonining ishlab chiqarish sharoitida o'tkaziladigan davomi, tarkibiy qismidir. Malakaviy amaliyot davlat ta'lim hujjatlarida ko'zda tutilgan shakl larda tashkil etiladi.

Har bir amaliyotning maqsadi, mazmuni va muddati o'quv rejalarida hamda amaliyot dasturlarida belgilanadi. Amaliyot dasturlari tanlangan yo'nalish, mutaxassislikning malakaviy talablari; amaliyot. obyektlari — korxonalar, muassasa, tashkilotlarning tavsiflari hisobga olingan holda o'quv muassasasi tomonidan ishlab chiqiladi, rektor tasdiqlaydi. Malakaviy amaliyotni o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasasi yaqinida joylashgan obyektlar tanlanib, shartnoma tuziladi. Malakaviy amaliyot tegishli bitimlar asosida xorijiy davlat korxonalar, muassasalarida ham o'tkazilishi mumkin.

13. **Amaliyot rahbari** tajribali professor, dotsent va o'qituvchilardan tayinlanadi. U zaruriy tayyorgarlik ishlarini bajaradi, talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat etadi, talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi, yozma hisobotni kafedra mudiri va dekanatga taqdim etadi. Amaliyot obyekti shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajaradi.

Talaba malakaviy amaliyot jarayonida: dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq amaliyot obyekti ichki tartib-qoidalarini o'rganishi va bajarishi; bajarilgan ish natijalari uchun javobgarlikni bo'yniga olishi; kundalik daftar yuritishi; amaliyot rahbariga yozma hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi zarur.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Oliy ta'limga doir atamalarning nomini va ma'nosini ayting.
2. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining qaysi turlari joriy etilgan?
3. Universitet, akademiya, institut atamaları nimalarni anglatadi?
4. Oliy maktabda o'quv mashg'ulotlarining qanday turlari, shakllari qo'llaniladi?
5. Masofaviy ta'lim nimaligini ayting.
6. Bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-axloqiy sifatlari nimalar asosida shakllantiriladi?
7. Talabalarning huquqlari nimalardan iborat?
8. Talabalarning vazifalari nimalardan iborat?
9. Talabalarning ikkinchi oliy ma'lumot olish huquqlari qanday amalga oshiriladi?
10. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" to'g'risidagi Qonun qachon qabul qilingan?
11. Talabalar bilimini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi ?
12. Ma'ruza nima, unga qo'yiladigan pedagogik talablarni ayting.
13. Amaliy mashg'ulotlar qanday tashkil etiladi?
14. Seminar mashg'uloti qanday tashkil etiladi?
15. Laboratoriya ishlari nima?
16. Talabalarning malakaviy amaliyoti qanday tashkil etiladi?

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. I.A.Karimovning «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasini o'qib, matn tuzing.

2. Oliy ta'lim haqida Nizomning 4-5 - «Oliy ta'lim muassasalari talabalari», «Oliy ta'lim muassasasi xodimlari» bo'limlarini o'qib, matnlashtiring.

**3-mavzu: O'Z-O'ZINI TARBIYALASH – TARBIYACHI-PEDAGOGLARNI
TAYYORLASHNING KASBIY VOSITASI SIFATIDA**

R E J A:

- 1. Shaxs kamolotida o'z-o'zini tarbiyalashning mohiyati.**
- 2. O'z-o'zini tarbiyalashning muhim omillari.**
- 3. O'z-o'zini anglash.**
- 4. Bolalarni tarbiyalashda tarbiyachi-pedagog shaxsining o'rni.**

Tayanch tushuncha va iboralar: pedagogik faoliyat, tarbiya, shaxs kamoloti, ijtimoiy hodisa, o'z-o'zini tarbiyalash, ideal, fazilatlar, odatlar, kasb kamoloti, pedagogik jamoa, pedagog qiyofasi, tanqidiy munosabat kabilar.

Pedagogik faoliyatning muhim jihatlaridan biri o'z-o'zini tarbiyalashdir. O'rta Osiyo xalqlarining umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarida inson o'zligini anglab olishi, o'z odatlari va sifatlarini o'zgartirishga qodir ekanligi ta'kidlanadi.

Ijodiy faoliyat jarayonida insonda o'z-o'zini boshqarish qobiliyati hosil bo'ladi, u o'z istaklarini o'z irodasiga bo'ysundirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kishining o'z shaxsini axloqiy ideallar, axloqiy bilimlar, e'tiqodlar asosida shakllantirish maqsadiga yo'naltirilgan faoliyati o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bu jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayonining davomi, faoliyat shakllaridan biridir.

Shaxsning har tomonlama kamoloti jamoada, faol faoliyat natijasida sodir bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida kishi o'zida ma'lum bir axloqiy qarashlarni hosil qiladi, bu qarashlar o'z navbatida uning xulqiga, xatti-harakatlariga ta'sir etadi. Kishining jamiyatda egallagan holati, kasbi ham uning ongi va xulqiga ta'sir o'tkazadi. O'z-o'zini tarbiyalashning mohiyati jamiyatning rivojlanishi, davlatning taraqqiyotiga yo'naltirilgan bo'lishi, unga xizmat qilishi lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash bu – kishining ijtimoiy tajribada mavjud bo'lgan va shu jamiyat a'zolarining ongida mustahkamlanib qolgan odatlar va sifatlarni egallab olishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Demak, o'z-o'zini tarbiyalash ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat talablari asosida belgilanadi.

O'z-o'zini tarbiyalash har bir shaxsning mehnat jamoalari, ma'lum bir guruh, kasb egalari mehnat faoliyatida qatnashishi jarayonida yuz beradi. Jamiyatda tarbiyaning va o'z-o'zini tarbiyalashning maqsadi va mazmuni bir xil bo'ladi. Bu maqsadga erishish tarbiyaning natijasi va jamiyatni taraqqiy ettirishning sharti hamdir. Shuning uchun ham o'z-o'zini tarbiyalash masalasi pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak pedagogning avvalo o'zi o'z shaxsini muntazam takomillashtirishi, o'zining bilim saviyasini kengaytirib, axloqiy odat va sifatlarini o'stira borishi lozim. O'z-o'zini tarbiyalash tajribasiga ega bo'lmagan kishi boshqalarga bu ishni o'rgata olmaydi.

O'rta Osiyoda o'tmishda yashab ijod etgan mutafakkirlar, donishmandlar – Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Navoiy, Bobur va boshqalarning faoliyati shundan dalolat beradiki, ular o'z bilimlarini oshirish, shaxs sifatida kamolotga erishishlari uchun o'z-o'zini tarbiyalashga katta e'tibor berganlar va natijada insoniy kamolot, ilm-fanni rivojlantirish borasida yuksaklikka erishganlar.

O'z-o'zini tarbiyalash ishini samarali amalga oshirish uchun talabdan quyidagilar talab etiladi:

- rivojlanish sohasida ergashish, taqlid qilish lozim bo'lgan namunani (idealni) ko'z oldiga aniq keltirish. Pedagogning ma'naviy, axloqiy qiyofasiga qo'yiladigan asosiy talablarnigina emas, pedagogik ish jarayonida pedagogning xulqida namoyon bo'ladigan eng nozik axloqiy xislatlarni ham bilish;
- pedagogik burchini mukammal bajarish, obro' orttirish uchun zarur sifatlarni aniqlash;
- pedagoglik faoliyati, ta'lim-tarbiya ishi uchun zarur bo'ladigan fazilatlarini shakllantirishga imkon beradigan faoliyat turlarini bajarishga faol kirishish va o'z bilimlarini muntazam ravishda oshira borish zarurligini anglash;
- o'z-o'zini tarbiyalash sohasida pedagogika ilmida va pedagogik amaliyotda qaror topgan tarbiya shakllari va usullarini bilish.

Talaba o'z-o'zini tarbiyalashi uchun ma'lum shart-sharoitlar ham zarur. Bulardan eng muhimi – o'z-o'zini tarbiyalashning negizi sifatida o'z bilimlarini mustaqil oshirishi uchun bo'sh vaqtga ega bo'lish, shuningdek, pedagogik jamoada pedagogning o'z ustida ishlashiga ko'maklashadigan tegishli muhit mavjudligi. Bu shart-sharoitlardan birortasi bo'lmasa ham o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni susayadi. Bu sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda ham, agar bo'lajak tarbiyachining o'z-o'zini tarbiyalashga xohishi, o'z-o'zini tarbiyalash maqsadi qat'iy bo'lmasa, pedagog o'zi mo'ljallagan maqsadga erishish uchun irodasini ishga solib, astoydil intilmasa, o'z-o'zini tarbiyalash sohasida biror samaraga erishi olmaydi. Tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash ishiga jiddiy kirishishi uchun irodasi kuchli, axloqiy tarbiyalangan bo'lmog'i lozim. Demak, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni – bilish, istak, bajara olish va harakat qilishdan iborat.

O'z-o'ziga, o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida zarur axloqiy xislatlardan biridir. Bunday xislat o'z-o'zini tarbiyalash uchun kishiga o'z kamchiliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish maqsadini o'z oldiga qo'yishga imkon yaratadi. Kishi o'ziga, o'z xulqi, xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaramasa, o'z-o'zini tarbiyalab bo'lmaydi. Shuning uchun kishida bunday xislatni yoshlik chog'idan tarbiyalab o'stirish maqsadga muvofiq.

Kuzatishlar va pedagoglar bilan suhbat natijalari quyidagi xulosaga kelish uchun asos bo'la oladi: tarbiyachining o'z xatti-harakatlarining axloqiy qimmatini haqidagi tasavvuri, tushunchasi uchun pedagogik mahorati darajasiga, pedagoglik burchini sezish va bajara olish darajasiga bog'liq; bu o'z navbatida tarbiyachining pedagoglar jamoasidagi obro'yiga ta'sir etadi. Odatda, o'z ishining ustasi, mohir pedagoglar o'z-o'ziga, o'z ishiga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan va o'z bilimlarini muntazam oshirib borishga intiluvchan bo'ladi. O'rtacharoq pedagog esa xotirjam yuraveradi, bolalarning bilimi sayozligi tarbiyachining pedagogik mahorati darajasiga bog'liq emas, deb hisoblaydi. Bunday tarbiyachi o'z bilimlarini oshirib, o'z-o'zini tarbiyalashga befarq qaraydi, pedagoglar jamoasida ham katta obro' ortira olmaydi. Bunday tarbiyachi ba'zan o'z alamini bolalardan olishga urinadi yoki o'z kuchiga ishonchi yo'qoladi, ishga befarq qaraydigan bo'lib qolyadi, o'z obro'si uchun kurashmay qo'yadi. Vaholanki, har bir tarbiyachi o'zidagi illatlarni bartaraf etishi mumkin. Shuningdek, har bir pedagog o'zida uyraydigan: bolalarda tashabbuskorlik, qat'iylik, talabchanlik kabilar yetmasligi; ishga tanqidiy ko'z bilan qaray olmaslik kabi illatlarni o'z-o'zini tarbiyalash orqali bartaraf eta olishi mumkin. Kishi o'z harakteri, odatlarini o'zgartira olmaydi, degan fikr haqiqatga unchalik ham to'g'ri kelmaydi.

Demak, har kim o'z kuchi va imkoniyatlarini oqilona, ongli baholay olishi, yo'naltirishi, boshqara bilishi bo'lajak tarbiyachi uchun o'z-o'zini tarbiyalashning muhim shartidir. O'z-o'zini baholash deganda kishining qobiliyati va bilimlari, pedagoglar jamoasidagi

mavqei, axloqiy-ruhiy sifatlari, odatlari, ko'nikma va malakalarini baholay olish nazarda tutiladi. Bu har bir kishi o'z fazilatlarini va kamchiliklarini tasavvur etib baholay olishi, oqilona yo'l tutishi demakdir. Barchaning nazarida pedagog inson kamolotining ko'zgusi hisoblanadi. Lekin radio, televidenie, ommaviy axborot vositalari kompyuter texnologiyalari ko'paygan hozirgi davrda tarbiyachi bolalar uchun axborot olishning yagona manbai emas. Endigi bolalar tarbiyachining fazilatlarini va xislatlarini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatiga ko'proq egadirlar. Shuning uchun hozirgi davr tarbiyachilarining ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar juda yuksakdir. Bu esa o'z navbatida tarbiyachidan o'z bilimlarini muntazam oshira borish va o'z-o'zini tarbiyalab borishni talab etadi.

Tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashining mohiyati – ideal talablariga mos ravishda o'zining yurish-turishlari, muomala madaniyati, fazilatlarini, odatlari va xislatlarini takomillashtirib, o'zgartirib borishni ongli ravishda belgilab olishdan iborat. U o'z bilimlarini muntazam to'ldira borish bilan birga kelajakka ishonch bilan qarashi, olijanoblik va odillik fazilatlarini o'zida mujassamlantirgan bo'lishi darkor. Bu maqsadga erishish tarbiyachidan o'z-o'zini tarbiyalash borasida muntazam va astoydil harakatni talab etadi.

Tarbiyachidan o'z fazilatlarini takomillashtirishni talab etuvchi omillardan yana biri bolalar orasida, pedagoglar jamoasi, ota-onalar jamoasida obro' orttirishga intilishdir. Bu ham tarbiyachini o'z-o'zini tarbiyalashga da'vat etuvchi omillardandir. Pedagogning obro'si esa uning pedagogik mahoratiga, ta'lim-tarbiya ishiga bo'lgan munosabatiga, mafkuraviy va nazariy tayyorgarligiga, faolligiga, bolalar va ota-onalar bilan ishlash usullariga, oiladagi xulqiga, bilim saviyasiga, o'z kasbdoshlariga xayrixohligi kabilarga bog'liq. Bu fazilatlarni tarbiyachi pedagogik faoliyat jaranida egallaydi va o'z-o'zini tarbiyalash yo'li bilan takomillashtiradi.

Tarbiyachi pedagogik mahoratni egallamasdan turib obro' orttirib bo'lmasligini anglasa, o'z bilimlarini orttirishga intiladi, mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'radi.

Tarbiyachini o'z-o'zini tarbiyalashga undovchi omillardan yana biri so'z va ishning birligiga intilish, tarbiyalanuvchilar uchun ibrat bo'lish istagidir.

Tarbiyachining o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati samarali bo'lish uchun u pedagogika, psixologik va metodika sohasidagi yangiliklardan, ilmiy tadqiqotlardan muntazam xabardor bo'la borishi kerak. O'rta Osiyoda yashab ijod etgan donishmandlar, buyuk mutafakkirlarning falsafiy, adabiy-pedagogik merosida o'z-o'zini tarbiyalash uchun qimmatli maslahatlar, yo'l-yo'riqlar mavjud.

O'z-o'zini tarbiyalashning muhim vositalaridan biri tarbiyachining o'z faoliyati, xatti-harakatlari, harakteridagi xislatlarning ijtimoiy qimmatini tahlil eta olishidadir. O'z-o'zini tahlil etish shaxs uchun o'zligini anglash yo'llaridan biridir. Bu tarbiyachiga o'z kamchiliklarini bilib olishga ko'maklashadi. Shu asosda o'z-o'zini tarbiyalash vazifalarini belgilashi mumkin. Buning

uchun tarbiyachi o'z xatti-harakatlarini kuzata bilmog'i lozim. O'z-o'zini kuzatish jarayoni bu tarbiyachining o'z ulqi, hissiyotii aniqlash va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari nuqtai nazaridan ularni baholay olish jarayonidir.

Tarbiyachining o'z-o'zini kuzatib va nazorat qilib borishi muntazam bo'lmog'i shart. Bunday ish odatda ma'lum muddatga mo'ljallab amalga oshiriladi. Tarbiyachi o'zini nazorat qilish uchun bolaga, kasbdoshlariga, ota-onalarga bergan va'dasini alohida дафтарга ёзиб бориши мумкин. Бунинг натижасида о'қув ёки педагогик фаолият давомида жуда ко'п педагогик faktlar, materiallar to'planadi. Tarbiyachining o'z-o'zini tarbiyalashi – o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'ya bilishi, o'ziga nisbatan qo'yadigan talablari real bo'lishi va ularni asta-sekin murakkablashtira borishi demakdir.

Buyuk daholardan biri quyidagi qoidalarga amal qilishni o'z faoliyati uchun asos qilib olgan: hovliqmaslik, ayniqsa, tashqaridan qaraganlar uchun xotirjam bo'lib ko'rinish; so'zda va xatti-harakatlardan rostgo'y, dangal bo'lish; o'ylab ish qilish; jur'tli bo'lish; o'zi haqida kamroq gapirish; vaqtni befoyda o'tkazmaslik; mo'ljallagan ishni albatta bajarish; zarur va kerakli narsalargagina sarf-harajat qilish; har kuni kechqurun yotish oldidan o'z xatti-harakatlari uchun o'ziga vijdonan hisob berish; biror qilgan yoki qilmoqchi bo'lgan ishi haqida maqtanmaslik.

Tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashga kirishishdan oldin o'zi uchun bunga o'xshash qoidalarni belgilab olishi mumkin. Maqsad yo'lida intilish, irodasini ishga solish o'z-o'zini tarbiyalashning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O'z-o'zini anglash. (Dunyoda eng qiyin ish – o'z-o'zini anglashdir. (Suqrot).

4-mavzu: TALABALARNING O'QUV-TADQIQOT JARAYONIDAGI FAOL ISHTIROKI.

R E J A:

- 1. Talabalar o'quv-tadqiqot ishlarini maqsadi va vazifalari.**
- 2. Talabalar o'quv-tadqiqot ishlarining shakllari va tarbiyaviy ahamiyati.**

3. O'quv jarayonida axborot qidirish va unda kutubxona ma'lumoti, bibliografik apparatining roli.

Tayanch so'z va iboralar: o'quv-tadqiqot ishlari, ilmiy ijod, axborot qidirish, kutubxona ma'lumoti, bibliografik apparat, hujjatli jamg'arma, axborot manbalari, kutubxona kataloglari, kartotekalar.

Universitetda talabalarni ilmiy ijodga jalb etish, ularning ilmiy tadqiqot ishlarini uyushtirish yuqori malakali Mutahassislarni tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari asosan **ikki bosqichdan** iborat bo'ladi: **o'quv-tadqiqot ishlari va ilmiy-tadqiqot ishlaridir.**

Talabalarning o'quv-tadqiqot ishlari asosan ta'lim, jarayonida o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, o'quv ishlarining barcha muhim tomonlarini qamrab oladi.

O'quv tadqiqot ishlarining maqsadi - talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlari, maqsadi, mohiyati vazifalari, ularning olib borish, tashkil etish, bajarishning nazariy asoslari bilan tanishtirish, Prezident asarlarini, Qonunlarni, Farmon va Vazirlar Mahkamasi qarorlarini, ilmiy adabiyotlarni, darsliklarni, qo'llanmalarni o'rganish uslubi bilan qurollantirish, o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish, berilgan topshiriqlarni bajarish yo'llarini o'rganish, ilmiy ma'lumotlarni qayta ishlash, turli tajribalar o'tkazish kabilarni nazarda tutadi.

O'quv-tadqiqot ishlarining vazifasi talabalarni o'quv mashg'ulotlariga faol qatnashishiga erishish, o'z mutahassisliklarining barcha qarorlari bilan to'liq tanishtirish, leksiyalar, laboratoriyalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar jarayonida berilgan topshiriqlar, vazifalarni o'z vaqtida bajarishga erishish, ularning mustaqil ishlash va ta'lim olishning usullari va shakllari bilan puxta tanishtirish kabi ishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan hamda u bo'lajak mutahassisning ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-tarbiyaviy fazilatlarini toptirishga mo'ljallangan va shularni hal etishga qaratilgandir.

Talabalar o'qish jarayonida ijtimoiy-gumanitar, umum-muhandislik, fundamental va mutaxassislikka oid fanlardan seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'radi, chizma va laboratoriya ishlarini bajaradi, kurs ishlarini yozadi, o'quv-ishlab chiqarish amaliyotini o'taydi, bularning barchasi talabalardan mashaqqatli mehnatni talab qiladi.

Birinchi kursda talabalarni universitetda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'nalishlari, yuqori kurs talabalari olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining mavzulari bilan tanishtiriladi.

Talabalar birinchi kursdayoq o'quv-tadqiqot ishlariga jalb etiladi. Bu ishda faol qatnashish barcha talabalar uchun majburiy hisoblanadi. Masalan, ular "Amaliy matematika", "Ma'naviyat asoslari", "o'zbekiston tarixi" fanlaridan, maxsus seminarlardan referat yozadilar. Ular o'quv kursining o'zlari istagan yoki qiziqqan bo'limiga oid mavzularni mustaqil ravishda tanlab oladilar. o'qituvchi referatlarni yozish uslubi to'Qrisida tavsiyanomalar beradi. Referatlarga tayyorgarlik jarayonlarida talabalar Prezidentimiz - I.A.Karimov asarlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlarini o'rganadi. Mavzuga oid adabiyotlar va hujjatlar bilan yaqindan tanishib chiqadi. Olingan ma'lumotlar puxta tekshirilgan, ilmiy asoslangan, tajriba bilan bo'qlangan bo'lishi zarur, natijada referat mavzusi to'g'ri va to'liq yoritiladi.

O'quv davrining ikkinchi va undan keyingi kurslaridagi o'quv-tadqiqot ishlari barcha maxsus fanlar bo'yicha o'tkaziladi-gan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning tarkibiy qismiga aylantiriladi, tanishuv, o'quv, ishlab chiqarish, diplomoldi amaliyotlarining dasturlariga, kurs ishlari mavzusiga singdiriladi. Ularning mazmuni, mohiyati o'quv ishlari jarayonida murakkablashtirilib boriladi.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishda, ularning fikrlash qobiliyatini, yozish mahoratini oshirishda o'quv-tadqiqot shakllaridan biri bo'lmish kurs ishlari muhim rol o'ynaydi. Kurs ishining mavzulariga kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi.

Kurs ishining mavzusi va yo'nalishi bilan puxta tanishgan har bir talaba birinchi navbatda tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yhatidagi asarlarni chuqur o'rganadi, mavzuning dolzarbligini, amaliy ahamiyatini aniqlaydi, uni hal etishning usullarini rejalashtirib oladi. Kurs ishini bajarish talabalardan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni, tadqiqotlarni o'tkazishni, ishlab chiqarishdagi yangi texnika va texnologiyani o'rganish, korxonadagi ishlarning ilQor tajribalaridan ko'nikma olish, umumlashtirish usullari yordamida aniqlashni talab etadi. Dolzarb mavzularda yozilgan kurs ishlari ko'rik-tanlovlarga tavsiya etiladi.

Shuningdek, yakka tartibdagi mashg'ulotlarda talabalarga leksiya, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarida o'tilgan mavzu-larni chuqurlashtirib o'rgatiladi va berilgan topshiriqlarni talabalar mustaqil o'qituvchi boshchiligida bajaradilar.

O'quv-tadqiqot ishlarini tashkil etishda talabalarining o'quv, tanishuv, ishlab chiqarish amaliyotlarini oqilona uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Bunda talabalar olgan nazariy bilimlarini o'z ko'zlari bilan texnologik jarayonda bo'ladimi, ko'zatuvda bo'ladimi, eng muhimi natija - olinayotgan mahsulot yoki jarayonning turli ko'rinishlaridan ko'nikma hosil qiladilar va o'zlarining amaliyot hisobotlarida, kurs loyiha va ishlarida, diplomlarida tadqiqot natijalari sifatida bayon etadilar.

Turli soha Mutahassislari, jumladan talabalar uchun zarur axborot manbalari odatda, bibliografik qidirish yo'li bilan topiladi.

Kerakli kitob, maqolalarni va ular haqidagi ma'lumotlarni bibliografik ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlashni bibliografik qidirish deyiladi.

Bibliografik ko'rsatkichlarining turlari quyidagilar:

1. Davlat bibliografik ko'rsatkichlari mamlakatda chaqirilayotgan matbuot asarlarining davlat hisobot ro'yhatini yoritib beradi.

2. Ilmiy-yordamchi bibliografik ko'rsatkichlar (biblografik ro'yhatlar) ilmiy va barcha faoliyatda qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashrlarini aks ettiradi.

3. Tavsiya-bibliografik ko'rsatkichlar (adabiyot ro'yhatlari) ma'lumot olishga, mustaqil o'qib, bilim orttirishga, o'z-o'zini tarbiyalash va bilimlarni tarqib qilishga yordam tariqasida nashr qilingan adabiyotlardan iborat bo'ladi.

Bulardan tashqari umumiy, mavzuli, sohaviy: mamlakatshunoslik, o'lkashunoslik, shaxsiy, bibliografik (bir yoki bir necha kishilarning asarlari va ular haqidagi adabiyotlarni aks ettiradigan) nashriyotchilik, kitob savdosi bo'yicha bibliografik ko'rsatkichlar ham chiqariladi.

Har bir kutubxonadagi axborot materiallari **ikki bo'limga** ajratilgan bo'ladi.

1-bo'lim hujjatli jamg'arma yoki birinchi darajali axborot manbalari to'planadi. Unga matbuot asarlari (kitoblar, qo'llanmalar, jurnallar, gazetalar va h.k), nashr etilmagan materiallar (dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ilmiy-tadqiqot ishlarining yakuniy hisobotlari va boshqa), turli mashina yordamida o'qiladigan materiallar kiradi.

2-bo'limga ikkinchi darajali manbalar, ya'ni bibliografik ko'rsatkichlar, qo'llanmalar, kutubxona kataloglari, katotekalar kiradi.

Shu tartibda ajratilgan adabiyotlarning har bir sohasida avval Prezident asarlari, Qonunlar, Vazirlar Mahkamasining Qarorlarining, so'ngra turli mualliflar va muassasalar nashrlarining tavsifi yozilgan kartochnalar alfavit tartibida joylashtiriladi.

Kutubxonalarning katalog va kartochnalari alohida kartochnalardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biridan kitoblar, maqolalarning tavsifi beriladi. Katalog va kartochnalar kutubxona jamqarmasida saqlanadigan birlamchi axborot manbalarining barchasiga to'ziladi va kutubxona jamqarmasining har tomonlama aks ettiradi.

Katalog va kartotekalar kompleksi kutubxonada qanday birlamchi axborot manbalari borligini ko'rsatadigan yagona ma'lumot - bibliografik apparatini tashkil etadi. Kutubxona kutubxonaga kelgach, o'ziga zarur axborotga oid materiallarni avvalo katalogdan qidiradi, so'ngra topgan manbalarni olish uchun hujjatlar jamqarmasiga murojaat qiladi.

Universitet kutubxonasining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda umumiy abonomentdan tashqari, talabalar uchun alohida o'quv adabiyotlari, ilmiy, badiiy adabiyotlar abonomentlari, talabalar o'quv zali mavjud. Bundan tashqari ijtimoiy fanlar uchun "Yangi demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganish" markazida ham o'quv

adabiyotlarining uncha katta bo'lmagan jamg'armasi tashkil etilgan. Talabalar uylarida ko'chma kutubxonalar tashkil etilgan.

Axborot qidirish jarayoni, to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. 1-bosqichda talaba bibliografik ko'rsatkichlar yordamida o'zini qiziqtirayotgan mavzuga oid qanday birlamchi axborot manbalari mavjudligini aniqlaydi, 2-bosqichda kutubxona kataloglari va katotekalari orqali shu kutubxonada birlamchi axborot manbalaridan qaysilari borligini bilib oladi, 3-bosqichda kutubxona fondidan kerakli adabiyotlarni qidirib topadi va o'z nomiga yozdirib oladi va nihoyat, 4-bosqichda kutubxonada olgan kitob yoki maqolani o'qib chiqib, o'ziga zarur axborotni topadi. Shu bilan axborot qidirish nihoyasiga etadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tadqiqotlarning tarixiy taqqoslash metodlariga nimalar kiradi?
2. Eksperimening xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Tabiiy eksperiment deganda nimani tushunasiz?
4. Axborot qidirish jarayoni necha bosqichdan iborat?

5-mavzu: PEDAGOGIK MULOQOT

R E J A:

1. **Pedagogik muloqot – tarbiyachining ijodiy faoliyati sifatida.**
2. **Tarbiyachi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi**
3. **Pedagogik muloqotda muomala madaniyati.**
4. **Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari.**

Tayanch tushunchalar: pedagogik muloqot; kommunikativ xususiyatlar; jonli muloqot; kasbiy funktsional javobgarlik, kasbiy pedagogik muloqot, pedagogik ta'sir vositasi, pedagogik kommunikatsiya, kommunikativ muloqot funktsiyalari, norasmiy muloqot.

Pedagogning eng muhim sifatlaridan biri uning bolalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir. Pedagogik-psixologik yo'nalishlarda olib borilayotgan

ilmiy-tadqiqot ishlarida, tarbiyachining sermahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyati to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar yuritilgan.

Tarbiyachi o'z kasbiga qiziqmasa, bolalarga nisbatan mehr-muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobiliyati, ya'ni kommunikaiv xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, tarbiyachining o'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarni bolalarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. Tarbiyachi va bolalarning jonli muloqoti, ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo'lgan muloqot, har qanday kasbiy faoltning barcha turlarida mavjud. Biroq, bir qator kasb egalarida (chunonchi, pedagog, shifokor, san'atkor va h.k.) u kasbiy faoliyatga shunchaki namroh bo'lgan oddiy omil emas, balki kasbiy ahamiyat kasb etadigan, uning asosini tashkil etadigan muhim kategoriya sanaladi. Bu holda muloqot insonlar o'rtasidagi odatiy o'zaro hamkorlik shakli emas, balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi kategoriya sifatida mavjuddir. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda muloqot muhim funktsional, tarbiyachi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o'zaro ta'lim va tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida namoyon bo'ladiki, bunda muloqotning muhim shartlariga va qonuniyatlariga, qo'shimcha vazifalariga rioya qilishga to'g'ri keladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o'zaro hamkorlik tizimida muloqot go'yo, shunchaki o'z-o'zicha sodir bo'ladi. Ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda esa muloqot ijtimoiy vazifaga aylanadi, natijada tarbiyachi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo'lishi talab qilinadi.

Odatiy va kasbiy kommunikativ vaziyatni qiyoslab ko'ramiz. Aytaylik, do'stingizga nimanidir gapirib beryapsiz. Masalan, biror ko'rgan filmingiz to'g'risida, uning mazmun va g'oyasini bemalol so'zlayapsiz. Bu holda muloqotning turmushda ro'y beradigan odatiy kommunikativ shaklidagi shaxsga yo'naltirilgan tizimi bilan ish ko'rgan bo'lasiz. Tasavvur qiling, sizga shu vazifani auditoriyada, minbarda turib, tengdoshlaringiz oldiga chiqib gapirib berish taklif etiladi. Siz kommunikatsiyani amalga oshirish vazifasini, aavalo, muloqotning tabiiy shakllari o'rniga kasbiy-funksional javobgarlik hissini, ya'ni kasbiy jihatdan anchagina murakkablashgan pedagogik faoliyatni darhol his etasiz.

Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, tarbiyachi va ta'lim-tarbiya jarayoni ob'ektlarining o'zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o'zaro

axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish sanaladi. Pedagog bu jarayonni faollashtiruvchi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot – tarbiyachining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta‘lim-tarbiya jarayonida bolalarni bilish va o‘rganish kaliti va o‘quv faoliyatining ijodiy xarakteri, bola shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta‘lim-tarbiyada maqbul bo‘lgan emotsional muhitni ta‘minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to‘siqlarning paydo bo‘lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga solib boshqarishni ta‘minlaydigan va o‘quv-tarbiyaviy jarayonda tarbiyachining o‘z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.

Pedagogik faoliyatda muloqot bolalarga zamon talablari asosida ta‘lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta‘minlash sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarbiyachining ijodiy pedagogik faoliyati tahlil qilinganda, mukammal shaklga ega bo‘lgan tizimlardan iborat ekanligini ko‘rish mumkin:

- tarbiyachining guruhda, bolalar jamoasi bilan ta‘lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan ijodiy tayyorgarligi;
- bolalar bilan bevosita o‘zaro hamkorlik asosidagi ijodkorlik.
- Tarbiyachining pedagogik muloqoti jarayonidagi ijodkorligi bir nechta ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:
 - tarbiyachining bolalarni mukammal bilish jarayonidagi ijodkorligi;
 - ular bilan o‘zaro hamkorlik tizimidagi ijodkorlik;
 - bolaga bevosita ta‘sirni tashkil qilishdagi ijodkorligi;
 - o‘z xulq-atvorini boshqara olishda (muloqotni o‘zini-o‘zi bilgan holda bir maromda olib borish) ijodkorlik;
 - bolalar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonida ijodkorlik.

Modomiki, shunday ekan, ta‘kidlash lozimki, tarbiyachining muloqoti kasbiy-ijodiy kategoriya bo‘lib, pedagogik faoliyatda tarbiyachi tomonidan ko‘plab kommunikativ vazifalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir.

Kasbiy faoliyatni endigina boshlayotgan yosh pedagoglar o‘z-o‘zini muntazam tahlil qilib borishi, mashg‘ulot jarayoniga pedagogik jihatdan samarali tayyorgarlik ko‘rishi uchun har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etiladi. Jumladan:

- o‘z o‘quv predmeti yuzasidan chuqur bilimga ega bo‘lishi va o‘rganilayotgan materialni puxta va mukammal bilishi;

- pedagogik-psixologik va metodik jihatdan bolalar bilan muloqotga jiddiy tayyorgarlik ko'rihi;
- har bir bolani va guruh jamoasining ichki psixologik xususiyatlarini o'rgangan bo'lishi;
- muloqotda o'zini erkin tutishi va ruhiy psixologik his-tuyg'ularini jilovlay olishi;
- guruh jamoasi bilan muloqot qilishning kasbiy ko'nikma va malakasini egallashi;
- pedagogik madaniyat va pedagogik taktning yuksak namunalari namoyish etishi, pedagogik tafakkur va dunyoqarashning rivojlanganligi:
 - ta'limning maqsadi, vazifasi va mazmuniga mos vosita va metodlarni tanlash mezonlari asosida mashg'ulotning texnologik haritasini tuza olishi;
 - sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tasodifiy pedagogik vaziyatlarni oldindan bilishi va unga nisbatan keskin choralar ko'rihi.

Bolalar bilan muloqotda pedagogik tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan tarbiyachining kommunikativ ko'nikma va malakalarni egallashiga va uni qo'llay olish layoqatiga bog'liq.

Kasbiy pedagogik kommunikativ muloqotning muhim komponenti, pedagogning o'z fikr va mulohazalarini, emotsional his-tuyg'ularini aniq ifoda eta olish mahoratidir. Turli tasodifiy pedagogik vaziyatlarda tarbiyachi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganda, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan rol o'ynab vaziyatdan chiqishni ham bilishi lozim.

Tarbiyachi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi

Tarbiyachi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kasb tanlash totivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish mutlaqo zarur ekanligi ta'kidlanadi. Respublikamizda pedagoglik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlarini, hislari, qobiliyatlari ish uslublari, pedagogik mahorat sirlarini egallash yo'llari, shaxslararo muloqot madaniyati yuzasidan turli davrlarda har xil ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan tarbiyachining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, tarbiyachining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, muloqotda har bir bolaga alohida e'tibor va dilkashlik guruh jamoasi bilan, ota-onalar bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, tarbiyachining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

ikkinchidan, har bir bola bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

uchinchidan, pedagogik muloqotda tarbiyachining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida tarbiyachining o'z faoliyatidan qoniqish hissini va xotirjamligini ta'minlaydi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda tarbiyachi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim:

- tarbiyachining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda tarbiyachi va bolalar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirish, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;

- muloqot asosida guruh jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, bolalar xatti-harakatlarining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- muloqot ob'ekti, ya'ni bolaning diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi tarbiyasi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda bolalar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.

Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun, tarbiyachining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilvtlar tarbiyachining guruh jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, bolalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir.

Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh pedagog quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g'oya

mafkrasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiqlik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- bolalarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;

- pedagogik faoliyatning barcha javhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarini oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulodda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql-idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

- dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- bolalar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish uslublari bilan qurollanganligi.

Tarbiyachilarning pedagogik faoliyati uzluksizdir, u pedagogik muloqot madaniyatini muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim:

1. Yuksak pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan o'z-o'zini anglashi, (muomalada o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini bilishi) va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashi.

2. Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllatirib borishi, muloqot asosida to'g'ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirish, muloqotda o'zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (kasbdoshlar jamoasi, bolalar, ota-onalar) qanday baholashi haqidagi reflektiv tasavvurlarini tahlil qilishi.

3. O'zida muosharat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi.

4. Muloqot jarayonida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni yengish ko'nikmalarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon pedagogidan, hayot sinovlariga bardoshli bo'lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topish, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli bo'lish, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi.

Pedagogik muloqotda tarbiyachining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari bolaning ideali sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot madaniyati tarbiyachi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda tarbiyachining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. *Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala bolalar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondoshish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan tarbiyachining pedagogik qobiliyatidir.*

Tarbiyachi bolalar bilan muomalaga kirishish asosida:

- 1.O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
- 2.Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
- 3.Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
- 4.O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda har bir bola qalbiga yo'l topadi.

Muomala tarbiyachi faoliyatining muhim tarkibiy qisim bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada tarbiyachi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- tarbiyachida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;
- muomala ob'yekti bo'lmish bolalar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;
- bolalarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, mashg'ulotni boshlashdan oldin bolalarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- bolalarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. Tarbiyachining nutqi ravon, bolalar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.

Pedagogik muloqot tarbiyachining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. Tarbiyachining bolalar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

- pedagogik muloqot orqali tarbiyachi tarbiyalanuvchi ob'ekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda tarbiyachi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;

- tarbiyachining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;

- bolalar jamoasi bilan muomalada tarbiyachining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;

- tarbiyachi bolalar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Muloqot – yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Psixologiya fanida muomala kategoryasi keng ma'noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi.

Pedagogikada muloqot tarbiyachi va bolalar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

- muloqot tarbiyachining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbyuiv qurol hisoblanadi;
- muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;
- tarbiyachi va bola munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;
- pedagogikada muloqot – tarbiyachining bolalarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatni faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;
- muloqot – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;
- noto'g'ri pedagogik muloqotdan bolalarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonmaslik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot – bu tarbiyachining bolalar bilan o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

Tarbiyachining bolalar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- bolalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- bolalarda faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;

- bolalarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;
- quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

Tarbiyachining pedagogik muloqoti ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, quyidagi funksiyalar bilan harakterlanadi:

- o'zaro axborot almashishni yo'lga qo'yish;
- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni birgalikda tashkil etish;
- bolalarni erkin fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish;
- salbiy holatlarni guruh jamoasi bilan birgalikda bartaraf etish;
- do'stlar uchun qayg'urish va ularga yordam berishga erishish;
- o'zligini anglash, bolalar bilan muloqotda qoniqish his etish.

Tarbiyachining bolalar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo'ladi:

Kommunikativ muloqot.

Interaktiv muloqot.

Pertseptiv muloqot.

1. **Kommunikativ muloqot**da bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. Tarbiyachi va bola bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Interaktiv muloqot**ning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi tarbiyachi o'zaro ta'sir etishda, bolalarning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti-harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. **Pertseptiv muloqot**da tarbiyachi va bolalar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish

asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, tarbiyachi bolalar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

***Jonli muloqot** – tarbiyachi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan bolalarga yetkazadigan, tarbiyachini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir.*

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Muloqot nima?
2. Kasbiy pedagogik muloqot deganda nimani tushunasiz?
3. Tarbiyachi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi.
4. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati.
5. Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari.
6. Pedagogik muloqotning qanday prinsiplari mavjud?

6-mavzu: KASB MADANIYATI

REJA:

1. **Madaniyat – inson kamolotining o'lchovi.**
2. **Kasb madaniyatining rivojlanishi.**
3. **Kasb madaniyatini rivojlantirish omillari.**

Tayanch so'z va iboralar: madaniyat, inson kamoloti, kasb madaniyati, rivojlantirish omillari, ustoz, murabbiy, tarbiya, ma'naviy qiyofa, axloqiy fazilat, mahorat, xulq-atvor, kasb-hunar, kasbiy tarbiya.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi, ustoz, murabbiy, ta'lim xodimi, mutaxassis, rahbar nafaqat bilimdon, balki eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar sohibi bo'lishi lozim. Darhaqiqat, yoshlarning kamol topishida ta'lim-tarbiya beruvchilarning ma'naviy qiyofasi, axloqiy fazilati, bilimi, mahorati, mehnatsevarligi, fidoyiligi, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy kamoloti muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ularning kasb madaniyati ham

alohida o'rin tutadi. Zero, mutaxassis xodimning mahorati yoki kasb madaniyati qanchalik yuksak bo'lsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti va inson hayotida kasb madaniyatining o'rni beqiyosdir. Idgarigi kasb madaniyati tushunchasi dasrlik va qo'llanmalarda alohida mavzu sifatida o'rganilmasdi. Yirik ijtimoiy o'zgarishlar ro'y berayotgan ayni zamonda kasb madaniyati muammosi ham dolzarb masalalardan ekani ayon bo'lib qoldi. Mehnat, turmush, xo'jalik faoliyati, muomala-muloqot sohalaridagi ko'plab muammolar hamda salbiy hodisalar tarbiya va madaniyatimizdagi nuqson-kamchiliklarni ko'rsatib beradi. Demak, xalqimizning turli yo'nalishlarda madaniyat borasida erishgan barcha yutuqlari hamda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni batafsil o'rganishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-falsafiy, metodologik, psixologik-pedagogik masaladir. Chunki kishilarning hayoti yoki turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Kasb madaniyati rivojlanishining asosi ta'lim-tarbiya ishlaridir. Ta'lim-tarbiya ishidagi muvaffaqiyat esa tarbiyachi-o'qituvchilarning kasb madaniyati va tafakkur dunyosiga borib taqaladi.

Ma'lumki, hamma kasblar uchun bir xilda taalluqli bo'lgan odob qoidalar yoki madaniyat mavjud. Shuningdek, har bir kasbga xos madaniyat (kasb madaniyati) ham bor. Masalan, o'qituvchining kasb madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'qituvchi faoliyatining mazmuni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishdan iborat. Ta'lim-tarbiya beradigan pedagog nafaqat bilimdon, balki tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli ham bo'lishi lozim. Zero, tarbiyalangan insongina o'zgalarni insoniylikka o'rgata oladi. Ta'lim berish bolalarni faqat bilimli qilishdangina iborat emas, balki odamiylikka o'rgatish degani hamdir. Ustoz yoki murabbiy o'zgalarga o'rgatishi uchun, eng avvalo, o'zi o'rganishi zarur. **Tarbiya** – *insonda insoniylikni shakllantiruvchi qudratli vosita*. Inson kamolot cho'qqisiga faqat tarbiya orqali ko'tariladi. Demak, mamlakatimizning buyuk kelajagini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalovchi mutaxassis-xodimlar, eng avvalo, insoniy sifatlar sohibi bo'lishi, kasb madaniyatini mukammal egallashlari lozim.

Pedagog kadrlarning kasb mahoratini oshirishni, kasb madaniyatini yuksaltirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Buning uchun esa o'quv-tarbiya muassasalarida pedagogning kasb mahorati va kasb madaniyati haqida tez-tez kengash va suhbatlar o'tkazib turish, ma'ruzalar o'qish foydadan xoli bo'lmaydi. Chunki bunda tarbiyachilar zamon talablaridan kelib chiqqan holda *o'z faoliyati va bilimlarini nazorat qilish va baholash, xatolarini tahlil etish, o'zida tarbiyachilik, o'qituvchilik sifatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini qayta tayyorlash va tarbiyalash imkoniyatlariga duch keladi*. Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya ishi nafaqat Vatanimiz kelajagi bo'lmish yoshlar hayotida, balki har bir kishi faoliyatida, umuman, jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumda o'ta ahamiyatlidir. Chunki ta'lim-tarbiyasiz jamiyat hayotida katta ma'naviy-

moddiy o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiyasiz kelajakda o'z samaralarini beruvchi islohotlar yo'q. *Axloq va madaniyatni yuksaltiruvchi vosita ta'lim-tarbiyadir.* Madaniyatsizlik esa illat. Usiz chuqur insoniy qadriyatlar o'rnini yuzakilik va soxtalik egallaydi. Zero, jamiyatda inqilobiy o'zgarishlar qilish, ijtimoiy hayotni takomillashtirish uchun insonning o'zi axloqiy jihatdan kamol topishi lozim. Inson butun umrining har bir davri, ya'ni bolalik, o'smirlik, yoshlik, yetuklik, qarilik chog'ida o'ziga xos axloqiy qiyofaga va axloqiy olamga ega bo'ladi. Buni yaxshi tushunmagan kishi turli yoshdagi odamlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Kasb madaniyati yuksak insongina turli yoshdagi kishilar ko'ngliga to'g'ri yo'l topa oladi, samarali yutuqlarga erishadi.

Kasb madaniyatining rivojlanishi shaxs va ijod erkinligiga, umumiy madaniyatdagi izchillik va an'anaviylikka bog'liq. Aks holda kasb madaniyati rivojlanmaydi, inqirozga yuz tutadi. Buni biz shaxsga sig'inish, qatag'on davrlaridan yaxshi bilamiz. Qanchadan-qancha madaniyat namoyandalari qatag'on etildi, ko'plar ijod etish, yaratish huquqidan mahrum bo'ldi. Chunki ma'naviy ishlab chiqarish, ijod qilish, yaratish ham mafkuralashtiriladi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy madaniyat va fanning ko'pgina yo'nalishlarida izchillik buzilgan edi.

Kasb madaniyatda hamisha uni shakllantiruvchi ma'naviy asos mujassam bo'ladi. Nega deganda, u hamisha g'oyalar, bilimlar, inson maqsadlarining ramzi-ifodasi. G'oyasiz, bilimsiz, maqsadsiz kasbiy madaniyat ham shakllanmasdi. Ma'naviy madaniyat mahsuli esa moddiy shakldagina o'z ifodasini topadi. Ular xuddi ana shu tarzda moddiylashadi va ijtimoiy hayot daliliga aylanadi.

Binobarin, kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib, aytishimiz mumkinki, kasb madaniyati yoki madaniyatning har qanday tashqi ifodalanishi insonning rivojlanishi yoki kamoloti darajasini ko'rsatadi. Demak, **madaniyat – inson kamolotining o'lchovi.** Inson o'z-o'zini faoliyati jarayonida madaniy-tarixiy mavjudot tarzida shakllantiradi. Uning asosiy sifatleri – tilni o'zlashtirib olishi, jamiyatdagi mavjud an'analar, qadriyatlarga bo'lgan faoliyat ko'nikmalarini egallab olishi natijasi. Biologik nuqtai nazardan qaraganda, inson ma'lum tuzilish, vazifa, qobiliyatga ega bo'lgan organizmdan boshqa hech narsa emas. Shuning uchun ham, madaniyat insondagi insoniylik o'lchovi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shuningdek, u insonning ijtimoiy mavjudot tarzidagi taraqqiyotining tavsifidir.

Madaniyat inson faoliyatining o'ziga xos texnologiyasini tashkil etadi. Sun'iy qurol-jihozlar yordamidagi mehnat faoliyati zarurat yuzasidan faqat kishilarning kuch-quvvatini birlashtirish va ular o'rtasida munosabatlarining tartibli tizimi qaror topishigina emas, balki mehnat qurollarini tayyorlash va ulardan foydalanish tajribasini to'plashni ham taqozo etgan. Biror avlod tomonidan to'plangan tajriba endilikda shaxsiy tajriba bo'libgina qolmaydi va

butunlay yo'qolib ketmaydi. Demak, munosabatlar va tajriba birgalikda madaniyatni shakllantiradi. Shu bois aytish mumkinki, ijtimoiy munosabatlar va demak, madaniyat ham bitta manba – tabiatga bo'lgan moddiy-amaliy munosabatlar natijasidagina kelib chiqmagan, shuningdek, u inson faoliyatining zaruriy shakliga aylangan.

Inson dunyoga kelganidan keyin tirikchilik o'tkazish uchun, albatta, biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'ladi. Busiz inson umrida biror ma'no-mazmun yo'q. Faoliyat ko'rsatish inson hayot yo'lining zaruriy shartidir. Dunyoda esa kasb-hunarlar juda ko'p. Har birining o'z qadr-qimmatini, o'z o'rni va ahamiyati bor. Ammo shunday kasb borki, uni barcha kasblarning ulug'i va sharaflisi desak mubolag'a bo'lmaydi. **Bu – o'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi.** Chunki o'qituvchi bilim ziyosi orqali aql-idrokimizni, shuurimizni yoritadi, qalbimizni g'aflatdan uyg'otadi.

Pedagogning kasb madaniyati, shubhasiz, uning kasbiy faoliyati bilan bog'liqdir. Bu sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun esa, albatta, pedagogning kasb mahorati, uning kasb madaniyati juda yuksak bo'lishi lozim. Lekin pedagog kasb madaniyatining aniq me'yoriy o'lchovi yo'q. "Kasb madaniyati nima?" degan savolga ham turlicha javob berish mumkin. Har qanday pedagogning kasb madaniyati faqat uning kasbiy faoliyati doirasidagi madaniyati bilan chegaralanmaydi. Harqalay, **kasb madaniyati kishi umumiy madaniyatining tarkibiy qismidir.** Umumiy madaniyati yuksak bo'lmagan odamning kasb madaniyati ham yuqori emas.

Madaniyat esa kishilarning o'z faoliyati va hayot tarzini tashkil etish usullari, shuningdek, ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan iqtidori hamda ijodiy kuchlari timsolidir. Afsuski, bizda ko'pincha madaniyat juda tor ma'noda tushuniladi. Axloq-odobli, yaxshi kiyingan, xushmuomala insonni madaniyatli hisoblaymiz. Lekin madaniyatli bo'lish uchun faqat axloq-odoblilik, yaxshi kiyinish, xushmuomalalikning o'zigina yetarli emas. Madaniyatlilik insondan yana juda ko'p fazilatlarni talab etadi. Insoniy fazilat manbai murakkab jarayondir. Buning uchun esa **inson o'zi bilan o'zi kurashishi, ya'ni dangasalik va nafsini yengishi, insoniy mohiyatini kashf etishi, ruhini kamol toptirishi lozim.**

Negaki, mehnatsevarlikka o'rganmagan inson diyonatdan yiroq kimsadir. U hech qachon madaniyatli bo'lmaydi. Demak, kishining kasb madaniyati deganda uning yaxshi va ozoda kiyinishini yoki faqat xushmuomalaligini tushunmaslik kerak. Garchand axloq-odob, yaxshi kiyinish, shirinso'zlik madaniyat belgisi bo'lsa-da, biroq ular to'la ma'noda madaniyat ko'rsatkichi bo'lolmaydi.

Madaniyatlilik nihoyatda murakkab va keng ma'noli tushunchadir. U qadim zamonlardan buyon kishilar tomonidan qadrlanib kelayotgan turfa insoniy sifatlarni qamrab oladi. Aytaylik, oliyjanoblik ham insoniy sifatlardan biridir. Lekin oliyjanob inson bo'lish har kimning

ham qo'ldan kelavermaydi. Chunki o'z Vatani va xalqiga yuksak muhabbati bo'lgan, o'zi bilan yonma-yon yashpyotgan yoki xizmat qilayotgan odamlarni hurmat qilgan, hamisha o'zgalarga yaxshilik qilishga intilgan, o'z manfaatini boshqalarnikidan yuqori qo'ymagan, kishilarning baxt-saodati uchun xizmat qiluvchi, o'z kasbi-korining fidoyisi, halol, vijdonli, baxt va hayot ma'nosini to'g'ri tushungan, mas'uliyat hissini anglagan, adolatparvarlik va mehnatsevarlikni o'z fazilatiga aylantirgan hamda boshqa insoniy sifatlar sohibi bo'lgan kishini oliyjanob deb hisoblash mumkin. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lmasdan turib, kishi madaniyatli bo'la olmaydi.

Madaniyat kishi xulq-atvorining asosi. Jaholatparastlik madaniyatsizlikdan kelib chiqadi. Yuqorida sanab o'tilgan va boshqa insoniy sifatlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular bir-birlari bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Faqatgina ularning barchasi insonda birgalikda yaxshi rivojlangan holdagina unda oliyjanoblik bag'ishlaydi. Bu fazilatlarning birortasidan mahrum bo'lgan insonni oliyjanob deb ham bo'lmaydi. Zero, inson ichki madaniyatining bosh ko'rsatkichi uning oliyjanoblighi hisoblanadi.

Demak, kasb madaniyati kishining umumiy madaniyatiga juda bog'liq. Buyuk Vatanimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradigan ustoz murabbiylar ma'naviy boy, axloqiy pok, siyosiy yetuk, bilimdon, kamtar va xushmuomalali bo'lishlari kerak. Chunki ustoz yoshlarni hayotga, insoniylikka tayyorlaydi, ularga yaxshi fazilatlarni singdirishga harakat qiladi. Buning uchun esa uning o'zi hayotni chuqur bilishi, insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Kishining kasbiy madaniyati, xususan tarbiyachilik madaniyati nimalarda ko'rinadi? Eng avvalo, o'z kasbiga bo'lgan qiziqish e'tiborida, muhabbat-mehrida, pedagoglik sir-sinoatlarini o'zlashtirib olishida, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishi, ijodkorligi, pedagogik mahorati, yangi usullardan, ilg'or zamonaviy pedagogik tajribalardan foydalana bilishi, bolalarning ichki dunyosini tushunishi, maylini, ruhi-kayfiyatini anglashi, yoshiga xos xususiyatlarini e'tiborga olishi, jamoa, ota-onalar, rahbariyat bilan muloqot-muomalasi, jamiyat oldidagi mas'uliyat burchini his etishi va boshqa holatlarda to'la namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ishlab chiqarish, faoliyatidagi munosabatlar, ya'ni mulkka, ishlab chiqarilayotgan buyumlarga, ularning go'zalligi, izchilligi, tartibliligi, chiroyi, bejirimligi va boshqalarga e'tibor berishi va ana shu narsalarga erishish yo'lidagi intilishi hamda mehnati natijalari sifati ham uning kasbiy madaniyatini bildiradi. Lekin kishi o'zini o'zi faollashtirmasdan, o'zini o'zi anglamasdan, kamol topishga intilmasdan, kamol topmasdan, ya'ni umumiy madaniyatini shakllantirmasdan turib kasbiy madaniyatini ham takomillashtira olmaydi.

Garchand kasb madaniyati kishi umumiy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lsa-da, undan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Kasb madaniyati tushunchasi kishining kasbiy faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni oydinlashtirib beradi. Kasbiy madaniyat tushunchasi kishining kasbiy faoliyati borasida erishgan barcha yutuq va muvaffaqiyatlari, huquq va erkinligi, o'qimishlilik, ma'rifatliligi, o'z kasbining sir-asrorlari va kasbiy qadriyatlarni bilishi, kasbiy munosabatlarni mukammal egallashi, ijodkorligi, yaratuvchanligi, iqtidori hamda kasbiy layoqati va boshqa masalalarni qamrab oladi.

Kasb madaniyati tushunchasi hamma vaqt u yoki bu shaxsning kasbiy faoliyati "sifatini" baholash va hamisha uni yuksak namunaviy kasbiy faoliyatlar, kasbiy ideallar, kasbiy qadriyatlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Kasb madaniyati deyilganda kishining barcha ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar bilan belgilangan kasbiy faoliyati holatining sifati tushuniladi. Kasbiy faoliyat holatining xuddi ana shu sifati yoki darajasi kishining kasbiy faoliyat sohasida erishgan yutuqlari, ongi, tushunchasi, dunyoqarashi, ma'naviyati, malakasi, uquvi, mahorati, umuman, uning tegishli kasb-hunarni o'rganishi va uni boshqalarga o'rgatishi, yaratishi ijodkorligi borasidagi kamoloti darajasini, munosabatlar tarzini va boshqalarni ko'rsatadi.

Dunyoda hech bir inson tayyor insoniy fazilatlar bilan tug'ilmagani kabi unga tayyor kasb madaniyati ham berilmaydi. Kasb madaniyatiga tinimsiz o'qish-izlanish, mehnat qilish, o'z-o'zini kamol toptirish, bilim-ma'rifat, tajriba, munosabatlar saboqlari orqali erishiladi. Har qanday odamning madaniyat, yaxshilik, oliyanoblik, adolat, haqiqat, mehr-oqibat, qisqasi insoniy fazilatlar haqida eshitishi, o'qishi, so'zlashi, yozishi boshqa-yu, lekin ana shu sifatlarni o'zida shakllantirishi va barqarorlashtirishi, yaxshilikni yo'q qilishni emas, yaratishni hayot tarziga, yashash usuliga aylantirishi boshqa masaladir. Insonda yaxshi sifatlar yoki madaniyat ko'nikmasi birdaniga emas, balki yillar davomida shakllanadi. Inson umriga mazmun va ma'no bag'ishlagan ham aslida moddiy va ma'naviy madaniyatdir.

Kasb madaniyati kasbga, mehnatga, ijodga, ish jarayoni va odamlarga bo'lgan munosabatlar asosida shakllanadi. Zero, kasbiy faoliyat amaliy ish, ijodiy jarayon, munosabatlardan iborat.

Endi kasb madaniyatini **pedagogika** nuqtai nazaridan talqin etib ko'raylik. Pedagoglik faoliyati ta'lim-tarbiya, ma'rifat, ma'naviyat, bolalar bilan doimiy munosabatlar jarayonidan iborat. Umuman, madaniyatni ta'lim-tarbiyasiz, bilimsiz, ma'rifatsiz, ma'naviyatsiz, fansiz, ijodsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Barcha munosabatlar, moddiy va ma'naviy qadriyatlarning asosini, insonning insoniylik sifatlari mazmunini, jamiyatning taraqqiyot darajasini ta'lim-tarbiya darajasi, fan imkoniyati, ma'rifat va ma'naviyat kuchi belgilab beradi.

Inson qaysi kasb yoki hunar bilan shug'ullanmasin, doimo munosabatda bo'ladi. Bu munosabat darajasi, tartibi, saviyasi uning madaniyati qay darajada o'zlashtirib olganligiga bog'liq. Kasbga o'rganish ham madaniyat, kasbga o'rgatish ham madaniyat va bu jarayonlardagi o'zaro munosabatlar ham madaniyatdir.

Kasb madaniyatini rivojlantirish omillaridan biri, bu – **kishining ma'naviyatini kamol toptirish**. Ma'naviy kamolot o'z-o'zini tarbiyalash orqali amalga oshadi. O'z-o'zini tarbiyalashning hech qachon kechi yo'q, faqat istak bo'lsa bas. Bu dunyoda, agar istak bo'lsa, o'z xulq-atvorini “to'g'rilay” olmaydigan insonning o'zi bo'lmasa kerak.

Ma'naviyat madaniyat asosi, biroq Prezidentimiz aytganidek, ma'naviyat taqdirning ehsoni emas, ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalbdan va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi lozim.

Kasb madaniyatini shakllantirishning ikkinchi omili **kasbiy faoliyatni rivojlantirishdir**. Kasbiy faoliyatni rivojlantirmay turib, kasbiy madaniyatga erishib bo'lmaydi. Kasbiy faoliyat sohasidagi o'z-o'zini faollashtirmagan, o'zligini, insoniy mohiyatini, ijodkorligini, kasbiy layoqatini rivojlantira olmagan odam ojiz kishi bo'lib qolaveradi. Demak, kasb madaniyatining shakllanishi uchun kasbiy bilim va tajriba, ijtimoiy faollik, axloqiy fazilatlar o'ta muhimdir. Bilim va bilim olish madaniyat degani emas, uni ezgu maqsadlar yo'lida qo'llay bilish madaniyatdir. O'z madaniyatini yuksaltirish – insonning ma'naviy ehtiyojiga aylanishi zarur. Ma'naviy ehtiyoj ma'naviy sohada faoliyat ko'rsatishni talab etadi. Faoliyat mehnat demakdir. Mehnat esa insonni aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Umuman, tarbiya va ma'naviyatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir xalqning o'ziga xos tarbiya usullari mavjud. Ular xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati rivojiga bog'liq ravishda shakllangan. Xalqimizning asrdan asrga, avloddan avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini ziynatlangan tarzda ma'naviyatimiz va milliy tarbiyamizda o'z ifodasini topishi lozim. Zero, bugungi kunda kasbiy faoliyat jarayonida kasb madaniyati ijtimoiy zaruratga, insonning ma'naviy ehtiyojiga aylanib borar ekan, kishilarda kasb madaniyatining, kasbiy tarbiyaning o'rni o'ta muhimdir. Lekin inson tayyor kasb madaniyati bilan tug'ilmaydi. U kasb madaniyatiga uzluksiz kasbiy va axloqiy tarbiya orqali erishadi. Demak, kasb madaniyatini shakllantirishning **uchinchi omili kasbiy tarbiyadir**.

Kasb ta'limi bo'lajak pedagoglarga tegishli mutaxassisliklar bo'yicha bilim berishni, ularni amaliyotga o'rgatishni nazarda tutsa, kasbiy tarbiya esa ularning ongi, tasavvuri, dunyoqarashi, xatti-harakati, his-tuyg'ulari, fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatish va mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni o'z oldiga asosiy masala qilib qo'yadi.

Kasb madaniyati shakllanishiga ham o'ziga xos sub'ektiv va ob'ektiv omillar ta'sir qiladi. Sub'ektiv omil kishi shaxsiyatining xususiyatlari, hayotiy ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ob'ektiv omil esa shaxs yashayotgan ijtimoiy muhitga, shuningdek, u faoliyat ko'rsatayotgan jamoadagi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Kishi o'zi sevgan kasb-kor yoki hunarga bo'lgan qiziqishi, ehtiyojini qondirishga intilar ekan, shubhasiz, kasb madaniyatini ham yuksaltirishga harakat qiladi, bu borada faoliyat ko'rsatadi, mehnat qiladi, izlanadi, ijod qiladi, yaratadi. Bu sifatlar, ayniqsa, kasb-hunar sir-asrorlarini mukammal bilishga intilishda ko'zga tashlanadi. Qaysi sohada bo'lmasin kishi aqliy, hissiy, tajribaviy bilish orqaligina kamol topadi. Kasbiy madaniyat ham bundan mustasno emas.

7-mavzu: TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT ISHLARI

R E J A:

- 1. Talabalarining ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarining vazifalari**
- 2. «Iqtidorli talabalar» ilmiy jamiyati, uning maqsadi va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishdagi o'rni**
- 3. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari, tashkil etish va bajarish shakllari**

Tayanch so'z va iboralar: ilmiy-tadqiqot, ijodiy ishlar, «Iqtidorli talabalar» ilmiy jamiyati, ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari, uni tashkil etish va bajarish shakllari.

Universitet talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari ikki yo'nalishda olib borilishi, ulardan biri o'quv jarayonining ma'lum qismi sifatida o'quv rejalari, kalendar rejalar va dasturlarga kiritilib, barcha talabalar uchun majburiy hisoblangan o'quv-tadqiqot ishlari ekani va ularning shakllari, amalga oshirish yo'llari oldingi ma'ruzada batafsil yoritildi. Endi talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarining 2-yo'nalishi o'quv rejalariidan tashqari, mashg'ulotlardan bo'sh vaqtda iqtidorli talabalar yo'li bilan to'garaklarda, kafedra qoshi-dagi ilmiy laboratoriyalarda, kafedra shahobchalaridagi ilmiy -tadqiqot ishlarini, ularning vazifalari, shakllari va usullarini ko'rib chiqamiz.

Talabalar universitetda o'zlari egallayotgan ixtisosliklari xususiyatlaridan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga ijodiy faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Masalan, Ishlab

chiqarish korxonasi yangi texnika, texnologiya va uslublarni tavsiya etish ham ilmiy asosdagi tadqiqot-lar bo'lib, talabalar ilmiy-texnik konferentsiyalarda o'z ma'ruzalari bilan qatnashadilar.

Talabalar ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlari o'quv mashg'ulotlarining davomi hisoblanib, ular talabalar o'quv jarayonida o'zlashtirgan bilimlarni chuqurlashtirish va boyitishda katta rol o'ynaydi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni va tizimi ilmiy-tadqiqot tadbirlari va shakllarining o'quv jarayoni qonuniyatlariga muvofiq ravishda mutassil bo'lishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida ilmiy-tadqiqot ishlari shakl va usullarining kursdan kursga, kafedradan kafedraga, bir fandan ikkinchi fanga, bir xil mashg'ulotlardan boshqa xil mashg'ulot-larga izchil tartibda o'tib borishini, talabalar ilmiy-ishlarni bajarish jarayonida o'zlashtiradigan bilim va mamlakatlar-ning hajmi asta-sekin ko'payib va murakkablashib borishini ta'minlaydi. Talabalar ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlari-ning kompleks ravishda amalga oshirilishi.

- milliy mafko'ra, milliy ong tushunchalarini chuqur anglash, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, talabalarni vatanga muhabbat, insonparvar, e'tiqod, sadoqat ruhida tarbiyalash;

- talabalarga o'zi tanlagan Mutahassislikni tezkorlik bilan egallashda yordam berish;

- talabalar ilmiy masalalarni hal etishda ijodiy fikr yuritishni va qobiliyatlarini o'stirish;

- talabalarga mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish ishtiyoqini singdirish;

- talabalarda tashabbuskorlikni, nazariy bilimlarini o'z amaliy faoliyatida qo'llash qobiliyatini o'stirish;

- eng iqtidorli, qobiliyatli talabalar ilmiy bevosita ishlab chiqarishga joriy qilinadigan ilmiy muammolarini ishlab chiqarishga jalb etish;

- o'z bilimlarini doimo takomillashtirib borish, ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashish ehtiyojini tarbiyalash va bunday ehtiyojni amalga oshira bilishni shakllantirish;

- bo'lajak Mutahassisning nazariy darajasi va ilmiy bilimdonligini oshirish;

- universitetdagi olimlar, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar zahirasini tarbiyalash vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

Universitetda iqtidorli talabalar faoliyat ko'rsatib kelayapti. Unda eng iqtidorli, qobiliyatli talabalar kompyuterda to'liq ishlash sirlarini o'rganadilar, xorijiy tillardan birini mukammal o'rganadilar.

CHet tillarini, informatika, o'zbekiston tarixi, ma'naviyat va ma'rifat asoslari va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirayotgan talabalar orasida, ilmiy ishlar olib bora oladigan, chet mamlakatlarga o'qishga yuborish mumkin bo'lgan, korxonalarda marketing va menejment asoslarida ish yuritish-ga moyilligi mavjud bo'lgan va boshqa shaxsiy qobiliyatga ega bo'lgan iqtidorli talabalarni izlash, tanlash va ularning bunday qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha

tadbirlar ishlab chiqarish hamda tegishli kafedralar bilan hamkorlikda bu ishlarni samarali olib borish kabi vazifalarni o'z zimmasiga olgan «Iqtidorli talabalar» jamiyati talabalarga «INTERNET» aloqalaridan unumli foydalanishni, ilg'or korxonalar tajribalarini o'rganish, kutubxonalar, gazeta va ilmiy jurnallardan foydalanish uchun talabalarga sharoit yaratishni tashkil etadi.

«Iqtidorli talabalar» ilmiy jamiyati eng iqtidorli talabalarni Respublika Prezidentining, Beruniy nomidagi Davlat stipendiyalariga, «Umid», «Kamolot» jamg'armalari, Banklar Assotsiatsiyasining maxsus stipendiyalariga tavsiya etadilar.

Shuningdek «Iqtidorli talabalar» ilmiy jamiyati ilmiy ish olib borish va boshqa shaxsiy qobiliyatlarga ega bo'lgan iqtidorli talabalarni shaxsiy chuqurlashtirilgan va maqsadli o'quv rejalari bo'yicha o'qitishga tavsiya berish, ularga bunday rejalar bo'yicha o'qishda ko'maklashish (adabiyotlar topish, zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish, ish rejalarini to'zish, o'quv va ilmiy ishlarini bajarishda maslahatlar berish, maslahatchi-ustozlar tanlash kabi vazifalarni ham amalga oshirdi.

Universitetda talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va amalga oshirish usullari xilma-xil bo'lib, ular:

- ijtimoiy, umummilliy va maxsus kafedralarda tashkil qilinadigan talabalar ilmiy to'garaklarining ishini;
- professor-o'qituvchilarning davlat va xo'jalik shartnomalar asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalarning alohida guruhlariga birlashib va yakka tartibda ishtirok etishini;
- talabalar konstruktorlik, ilmiy-texnik tarjima qilish, talabalar modalar uyidagi ishlarni;
- talabalarning turli fanlar bo'yicha o'tkaziladigan olimpiadalarda, ko'rgazma va ko'riklarda, turli anjumanlarda qatnashishni;
- aholi o'rtasida fan-texnikaga oid bilimlarni tarqatishga qaratilgan faoliyatini;
- universitetda va ishlab chiqarish korxonalarida, ilmiy laboratoriyalarda tadqiqotchi sifatida ish olib borishni ko'zda tutadi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining eng keng tarqalgan shakli - bu talabalar ilmiy to'garaklaridir. Odatda ilmiy to'garakda ko'pi bilan 20-30 talaba shug'ullanadi. Har bir to'garak bitta yoki bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha ilmiy mavzular bo'yicha ish olib boradi. Yaxshi ishlaydigan ilmiy to'garakni talabalarning birlamchi ijodiy deb hisoblash mumkin. Har bir ilmiy to'garak kafedra qoshida tashkil etilgani sababli unga shu kafedra tayinlangan o'qituvchi rahbarlik qiladi. Talabalar saylaydigan to'garak sardori ilmiy rahbar-o'qituvchiga yordamchi bo'ladi. Ilmiy to'garaklar reja asosida ish olib boradi. Rejani bir semestrga, o'quv yiliga, butun o'qish davriga mo'ljallab tuzish mumkin.

Talabalar ilmiy ishlarining nihoyatda istiqbolli shakli-ularning umumuniversitet kompleks tadqiqotlarida, mutaxassislik kafedralarning rejali ilmiy ishlarini bajarishda qatnashishidir. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarining yakuni - ilmiy maqola, patent, nomzodlik dissertatsiyaga mavzu va ma'lumot sifatida shakllandi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan turlaridan biri - fanlar bo'yicha o'tkaziladigan - Respublika olimpiadalaridir. Universitetimizning talabalari "Talaba va ilmiy-fan taraqqiyoti" olimpiadasiga umumpedagogik va mutaxassislik fanlaridan muvaffaqiyatli qatnashib kelishmoqda.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining uzluksiz rivojlanib borishi uchun har bir kafedrada, fakultetda va butun universitetda ijodiy vaziyat yaratilishi, ilmiy ishni tashkil etishda uning barcha xima-xil shakllari va uslublardan keng foydalanish zarur. Shuning bilan birga talabalarning o'zlari ilmiy izlanishlarga, bo'lg'usi bakalavr, magistr faoliyatining xarakteri va mazmuni bilan bog'liq bo'lgan muammolar bo'yicha tadqiqot olib borishga chindan qiziqib, unga faol kirishganlaridagina - ularning bu sohadagi faoliyatining samaradorligi to'xtovsiz oshib borishi mumkin. Buni talabalar yaxshi bilishlari, doima esda saqlashlari va unga amal qilishlari lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tadqiqotlarning tarixiy taqqoslash metodlariga nimalar kiradi?
2. Eksperimening xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Tabiiy eksperiment deganda nimani tushunasiz?
4. «Iqtidorli talabalar» ilmiy jamiyatining maqsadi?
5. Universitetda talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va amalga oshirish usullari?

8-mavzu: TALABALAR BILAN TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH.

R E J A:

- 1. Tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish.**
- 2. Tarbiyaviy tadbirlar tizimi.**
- 3. Tarbiya yo'llari va vazifalari.**

Asosiy tushunchalar: reja, rejalashtirish, majmuali reja, istiqbolli reja, tarbiyaviy faoliyat, tarbiyaviy tadbirlar, ommaviy va individual tarbiyaviy ishlar, o'z-o'zini tarbiyalash, tarbiyalanganlik darajasi.

I. Tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish

1. Oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya ishlarini istiqbolli rejalashtirish tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi **zarur** shartlardan biridir. Uzoq muddatga mo'ljallab tuzilgan **reja** bo'lmasa, tuzukroq ishlab ham bo'lmaydi. Tarbiyaviy ishlar rejasining asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya tadbirlarini ma'lum bir tizimga keltirish, aniq maqsadga yo'naltirish, tarbiya jarayonida izchillik, uzviylik va ketma-ketlikni ta'minlash, o'quv metodik ishlar, ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy tadbirlar o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish, talabalarni tarbiyalash sohasida ilg'or tajribalarni umumlashtirishdan iborat. Majmuali xarakterdagi istiqbolli reja talabalarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq yo'l va vositalarini ko'rsatadi.

2. Oliy maktabda talaba-yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatli mutaxassislar qilib tarbiyalash dasturi va ta'limning barcha o'quv davriga mo'ljallangan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasini tuzish odatga aylandi. Ilmiy jihatdan asoslangan istiqbolli reja yoki dastur talabalarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash sohasidagi barcha ishlarning asosiy yo'nalishlarini birlashtiradi, fakultet, kafedra va jamoat tashkilotlarining bo'lajak mutaxassislarni barkamol shaxs qilib shakllantirish sohasidagi faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Istiqbolli reja yoki tarbiyaviy ishlar dasturini ta'limning barcha yillariga mo'ljallab tuzish maqsadga muvofiq. Istiqbolli rejalashtirish oliy maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining butun hajmini, ko'lamini aniq tasavur etishga, har bir kursda bajariladigan aniq vazifalarni belgilab olishga imkon beradi.

Oliy o'quv yurtida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga ma'naviyat bo'limi rahbarlik qiladi. Bu vazifa ijtimoiy fan kafedralari, pedagogika va psixologiya kafedralari zimmasiga yuklanadi. Oliy o'quv yurtlarida ilmiy-metodik kengashlar ham, yoshlarni tarbiyalash masalasi bo'yicha tuzilgan komissiyalar ham bu ish bilan shug'ullanadi. Istiqbolli reja yoki dasturni tuzishda barkamol shaxsni tarbiyalash to'g'risida Prezident farmonlari va me'yoriy hujjatlardan kelib chiqadigan xulosalar asos qilib olinadi.

4. Tarbiyaviy ishlarning samarali bo'lishi va istiqbolli rejalashtirish uchun sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazib turish lozim. Sotsiologik tadqiqotlar talabalarining hayoti va faoliyatini o'rganishga, ularning ruhiy dunyosini, ehtiyojlari, qiziqishlari va ideallarini; talabalar hamda o'qituvchilarning vaqt budjetini, tarbiyaning ayrim yo'nalishlari, shakl va usullarining ta'sirchanligini aniqlashga imkon beradi. Masalan, biror kurs talabalarining vaqt budjetini oldindan o'rganmay turib, tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri belgilash qiyin. Chunki mo'ljallangan tadbirlar haddan tashqari ko'p yoki oz bo'lishi mumkin, natijada tarbiyaviy ishda uzviylik tamoyili buziladi. Bu, tarbiyaviy ta'sirlarning samaradorligini pasay tiradi.

5. Istiqbolli reja yoki dasturda ko'rsatilgan tarbiyaviy ishlar oliy maktabda o'quv jarayoni bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishi zarur. Bu faqat ta'limning mazmuni tarbiyaviy xususiyatiga ega bo'lishidan iborat bo'lmay, shu bilan birga, o'qishdan tashqari vaqtda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish shakllari va vositalari ham talabalarga shu davrda berilayotgan ta'limning xususiyatiga bog'liq bo'lishi lozim.

Istiqbolli rejalashtirishning samarali bo'lishi belgilangan ayrim tadbirlarning va umumiy rejaning bajarilishini nazorat qilib borishga ham bog'liq. Odatda, ma'naviyat bo'limi rejaning bajarilishi ustidan umumiy nazoratni olib boradi. Istiqbolli reja yoki dasturda faqat bajaruvchi va tashkilotchilarnigina emas, balki nazorat qilib boruvchilarni ham aniq ko'rsatish maqsadga muvofiq. Chunki nazoratning izchil va ta'sirli bo'lishi rejani bajarishning muhim shartidir.

6. Oliy maktabda talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lajak mutaxassislarda **kasb odobini** shakllantirishdan iborat. Bu tanlagan kasbga muhabbatni o'stirish, kasb odobiga xos axloqiy tushunchalar, xulqiy normalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Masalan, talabalar ongida pedagogik kasb odobini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar, pedagogika va psixologiya hamda ixtisos fanlari kafedralari muhim rol o'ynaydi. Chunki o'qituvchi odobi pedagogika va psixologiyani, shuningdek, ixtisoslik fanlarini o'rganish natijasida, pedagogik kasbni bevosita amalda egallab olish tufayli shakllanadi.

Pedagogik kasblarni tanlagan talabalar birinchi semestr davomida «o'qituvchilik ixtisosiga kirish»ni o'rganadilar. Bu kursning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: pedagogik kasbning shaxsiy va ijtimoiy qimmatini, ahamiyatini, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyatda uning o'rni, vazifalari va xususiyatlarini ochib berish; o'qituvchini .pedagogik

faoliyatga tayyorlashning tizimi, mazmuni, shakl va metodlarini bayon etish; oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishini, mustaqil ishlash metodikasini o'rganishdan iborat. «O'qituvchilik ixtisosiga kirish» kursini o'rganish pedagogik kasbning mohiyatini chuqur anglashga, mustaqil o'qish, ilmiy ishlar, jamoat ishlarida ongli ravishda va faol qatnashishga yordam beradi. Bu fanni o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning faoliyati va tafakkurini professional-pedagogik yo'nalishda shakllantirishga, oliy maktabda ta'lim olish sharoitlariga ko'nikish hosil qilishlariga imkon beradi.

7. Ayrim oliy o'quv yurtlarida ikkinchi kursdan boshlab o'qituvchi odobini shakllantirishga yordam beradigan maxsus fanlar o'qitiladi. Masalan, «pedagogik etika» (o'qituvchi odobi)dan fakultativ mashg'ulotlar o'tkaziladi. Unda pedagogik kasbning axloqiy xarakteri, o'qituvchi odobining tushunchalari, norma va qoidalari bayon etiladi. Bu bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal shakllantirishga yordam beradi.

. Talabalarda o'qituvchi odobini shakllantirish pedagogika va psixologiya hamda ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Bu fanlardan o'qitilayotgan mavzularning mazmuni bilan bog'liq ravishda talabalarning e'tibori kasbiy axloq-odob masalalariga jalb etiladi.

8. Istiqbolli rejalarning ba'zilarida oliy o'quv yurtini bitirib maktablarda, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarida, korxonalarda ishlayotgan kishilar bilan uchra- shuvlar, ularning professional malakasini oshirishga yordam beradigan boshqa tadbirlar ham mo'ljallanadi. Bu oliy maktabni bitirib chiqqan kishilar bilan muntazam aloqa o'rnatish maqsadiga xizmat qiladi. Bu ish alohida diqqatga sazovordir. Chunki u mutaxassislar tayyorlash sohasida amalga oshirilgan barcha ishlar natijasining samaradorligini aniqlashga, xususan universitetni tamomlab chiqqan yosh o'qituvchilarning axloqiy sifatleri maktablar va xalq ta'limi idoralarining shu kundagi talablariga qay darajada mos kelishini aniqlashga yordam beradi. Oliy o'quv yurtini bitirib chiqqan kishilar faoliyatiga doir axborotlar oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayoniga ayrim o'zgarishlar, tuzatishlar kiritishga ham imkon beradi.

9. Talabalarni tarbiyalash sohasidagi ishlarning samarali bo'lishi uchun professor-o'qituvchilar, ishchi va xizmatchilarni ham mustaqillik g'oyalari, milliy ma'naviyatli qilib tarbiyalab borishni jiddiy rejalashtirish zarur. Ayrim oliy o'quv yurtlari talabalarni tarbiyalashning majmualij rejasini bilan bir qatorda oliy o'quv yurtining xodimlari bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasini ham tuzib, uni amalga oshiradilar. Bu rejalarda oliy o'quv yurtining barcha xodimlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir tadbirlar nazarda tutiladi.

10. Oliy maktablar uchun tuzilayotgan tarbiyaviy ishlar dasturi va istiqbolli rejalarda o'quv yurtining maqsadi, vazifalari, tarbiya prinsiplari bayon etiladi, ular tarbiyaviy ishlarning asosiy

yo'nalishlari va mazmunini belgilashga xizmat qiladi. Bir qancha oliy o'quv yurtlarida tuzilgan bunday dastur va istiqbolli rejalarda talabalarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga imkon beradigan tadbirlar tizimi, faoliyat turlari ko'rsatib berilgan.

11. Pedagogika institutlari, universitetlar, o'rta umumiy ta'lim maktablari uchun yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlashga da'vat etilgan. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtining asosiy maqsadi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda (1997-yil) belgilangan umumiy o'rta ta'lim maktabining talab va ehtiyojlaridan, asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

Maktab ta'lim-tarbiya ishini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar talablari bilan bog'lab olib boradi va o'quvchilarga tarbiya berishni umuminsoniy va milliy axloq talablari ruhida amalga oshiradi. Bu muhim vazifani, faqat, atroflicha va puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassisgina amalga oshira oladi. Shuning uchun ham pedagogik ixtisosliklarni egallayotgan talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilganidek, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan raqobatbordosh kadrlarni tayyorlashdan iborat.

12. Kishining barkamol shaxs sifatida rivojlanishi - uning faolligiga bog'liq. Shuning uchun ham oliy maktabda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning mohiyati yigit va qizlarning xilma-xil faoliyatini oqilona uyushtirish va faoliyatning barcha turlarini boshqarishdan iborat. Tarbiyaviy ishlar dasturi va istiqbolli rejalar talabalar faoliyatini uyushtirishga qaratilishi lozim. Talabalar bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlar dasturini tuzishda talabalar faoliyatini quyidagi turlarga bo'lish maqsadga muvofiq.

Bilish faoliyati - o'qish va mustaqil bilim egallash. U professor-o'qituvchilar rahbarligida amalga oshiriladi va bu jarayonda talabalar ma'naviy-axloqiy jihatdan ham shakllana boradi.

Ijtimoiy-mafkuraviy faoliyat. Talabalar faoliyatining bu turi milliy va umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni, O'zbekiston davlatining me'yoriy hujjatlarini chuqur o'rganish, ularni targ'ib qilish, turmushga tatbiq etishda faol qatnashishdan iborat.

Mehnat faoliyati. Talabalar bajaradigan kasbiy o'quv- biluv mehnati, ijtimoiy foydali ishlar, unumli mehnat yoshlarda kasbiy malaka va ko'nikmalarni, qobiliyat va xarakterni, boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish va ijtimoiy foydali faoliyat natijasida shaxsning fuqarolik qiyofasi tarbiyalanadi, shaxs va jamiyat manfaati yo'lida xizmat qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi, mehnatga va mulkka munosabat hissi rivojlanadi.

Faoliyatning barcha turlarida izchil qatnashish talabaning mustaqilligi va ijtimoiy faolligini oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi, ularda professional-kasbiy sifatlari va axloqiy fazilatlarini o'stirishga imkon beradi.

II. Tarbiyaviy tadbirlar tizimi

1. Oliy o'quv yurtida talabalarni tarbiyalashga xizmat qiladigan asosiy tadbirlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasasi doirasida o'tkaziladigan tadbirlar:

- ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga doir masalalarni muhokama qilishga bag'ishlangan ilmiy kengashning yig'ilishlari;

- o'qishga yangi qabul qilingan yigit va qizlar bilan o'tkaziladigan talabalikka bag'ishlov marosimi;

- talabalar yozda bajargan ishlarning yakuniga bag'ishlab o'tkaziladigan dam olish kechasi;

- oliy o'quv yurtining professor-o'qituvchilari, xizmatchilari va jamoat tashkilotlari ishtirokida o'tkaziladigan majlislar va konferensiyalar;

- talabalar ilmiy jamiyatining ijtimoiy-gumanitar, psixologo-pedagogik va ixtisoslik fanlari bo'yicha o'tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyalari;

- O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatiga doir, shuningdek, Prezidentimizning hayoti va faoliyati to'g'risida, xalqaro ahvol to'g'risida, O'zbekiston fani va ishlab chiqarishining yutuqlari, madaniyat, ma'naviyat, fizkultura va sportga doir ma'ruzalar;

- jamoat tashkilotlarining hisobot-saylov yig'ilishlari, yoshlar, kasaba tashkiloti faollarining ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlab o'tkazadigan majlislari;

- talabalar bajaradigan ilmiy ishlar bo'yicha konkurslar va ko'rgazmalar tashkil etish;

- ijtimoiy-mafkuraviy masalalarga doir mavzularda ko'rgazmalar;

- kafedralar yoshlar tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazadigan tematik kechalar va kitobxonlar konferensiyalari;

- eng yaxshi fakultet uchun konkurs;

- an'anaviy bayram kunlari o'tkaziladigan sayllarda talabalar, professor-o'qituvchilar va xizmatchilarning qatnashishi;

- badiiy havaskorlik to'garaklarining ko'riklari va san'at festivallari;

- talabalarining ijtimoiy foydali mehnatini uyushtirish, yozgi dam olish oromgohlarida amaliyotga jo'nab ketayotgan talabalarni tantanali ravishda kuzatib qo'yish va kutib olish;

- sportning har xil turlari bo'yicha musobaqalar va ommaviy poygalar o'tkazish, turistik sayohat, slyotlar uyushtirish;

- baynalmilal do'stlik klublari, milliy markazlar va boshqa klublar tashkil etish;

- oliy o'quv yurtining jamoat tashkilotlari o'tkazadigan vatanparvarlikka doir tadbirlar;

- ko'ptirajli gazeta va devoriy gazetalarni muntazam chiqarish;

- bitiruvchi kurs talabalari bilan mutaxassislikka bag'ishlov marosimini tayyorlash va o'tkazish kabilar.

Fakultet bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar:

- guruhlarda jamoat tashkilotlarini saylash, yangi saylangan faollar o'quvini uyushtirish;
- birinchi kurs talabalarining fakultet rahbarlari va xizmatchilari bilan uchrashuvi;
- yozgi dam olish oromgohlarida o'tkazilgan pedagogik amaliyot va yozgi ishlarni yakunlash;
- fakultet dekani, kafedra mudirlarining yangi o'quv yilidagi vazifalar, o'zlashtirish, intizom masalalari bo'yicha talabalarining yig'ilishlarida chiqishlari;
- ijtimoiy fan kafedralari o'qituvchilarining faollar bilan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganish va talabalar orasida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarga bag'ishlangan qo'shma yig'ilishlari;
- ijtimoiy-mafkuraviy mavzularda, shuningdek, fan va texnikaning muhim muammolariga doir, madaniyat va axloqqa doir ma'ruzalar;
- dongdor kishilar bilan, urush va mehnat faxriylari bilan, xizmat ko'rsatgan o'qituvchilar bilan uchrashuvlar, tematik dam olish kechalari;
- kitobxonlar konferensiyalari, badiiy va ilmiy adabiyotlarga doir abzorlar;
- tarixiy kunlarga bag'ishlangan tantanali majlislar va kechalar, fakultetni bitirib chiqqanlar bilan uchrashuvlar o'tkazish;
- fakultetning hayoti, uning tarixini, mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasidagi yutuqlari, fakultetdagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlarini aks ettiruvchi ko'rgazmalar va tash- viqotning boshqa turlari;
- fakultetning eng yaxshi guruhi uchun tanlov o'tkazish;
- talabalarining eng yaxshi ilmiy ishlari uchun tanlov;
- fakultet bo'yicha faollarning yig'ilishlarini, jamoat tashkilotlarining konferensiyalarini o'tkazish;
- fakultet talabalarining universitet bo'yicha o'tkaziladigan namoyish, miting, konferensiya, uchrashuv kabilarda faol ishtirok etishi;
- guruhlarda ma'naviyatga doir mashg'ulotlar o'tkazish;
- maishiy turmush, jamiyatda o'zini tuta bilish normalari va qoidalari, turar joylarda yashaydigan talabalarining xona- larini toza, ozoda saqlash va davlat - jamoat mulkini asrash sohasidagi mas'uliyati kabi mavzularda suhbatlar o'tkazish;
- fakultetda o'zlashtirish va davomat, o'quv-metodik komissiyalarning faoliyati bo'yicha ko'riklar o'tkazish, o'quv semestri yakunlarini, o'quv intizomini muhokama qilib borish;
- fakultetda talabalar ilmiy jamiyatining ishini yaxshi yo'lga qo'yish;
- fakultetda sport musobaqalari va ommaviy-mudofaa musdbaqaalarini o'tkazish;
- badiiy havaskorlik to'garaklarining ishlarni tashkil etish;

- kinofilm va spektakllarni birgalikda ko'rib, muhokama qilish, muzeylarga va qadimiy shaharlarga ekskursiyalar;

- jamoat tashkilotlari yo'li bilan amalga oshiriladigan tadbirlar va boshqalar.

2. Odatda, talabalarni tarbiyalash dasturi va istiqbolli rejalarida har bir kursda bajariladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni batafsil bayon etiladi, tarbiyaning maqsadi, vazifalari, asosiy yo'nalishlari va tarbiyaviy tadbirlar tizimi oydinlashtiriladi.

Bo'lajak mutaxassisda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini samarali shakllantirish uchun, avvalo, birinchi kurs talabalari qisqa vaqt ichida o'quv ishlarini mustaqil bajarish malakasini egallab olishi, maishiy turmush masalalarini mustaqil ravishda bajarishni, o'qish, dam olish va madaniy hordiq chiqarishni o'rganib olishlari, talabalar faoliyatining barcha turlariga muntazam ravishda jalb etilishi zarur. Bu ishlarni tashkil etishda birinchi kurs talabalarining qiziqishlari va qobiliyat, imkoniyatlarini to'laroq aniqlash va e'tiborga olish. shuningdek, tanlagan kasbining xarakteridan kelib chiqadigan professional-axloqiy sifatlarni tarbiyalash vazifalarini nazarda tutish lozim.

Birinchi kurs talabalari bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- har bir talabaning shaxsiy xarakter xususiyatini bevosita o'rganish va uni tarbiyaviy ishlarni uyushtirishda e'tiborga olish. Talabaning individual xususiyatini nazarda tutib faoliyatning barcha turlariga sekin-asta va faol jalb etish, o'z- o'zini tarbiyalashiga ko'maklashish;

- guruhda sog'lom boshlang'ich jamoani vujudga keltirish;

- oliy maktabda o'qish va talabalar turar joylarida yashash sharoitlariga tezroq ko'nikishlari va odatlanishlariga ko'maklashish, ularning o'z huquq va burchlanni bilib olishlariga erishish;

- talabalarni o'quv ishlarini muntazam bajarishga, bibliografiyadan foydalanishga o'rgatish, o'quv predmet- * larining har bir mavzusini muntazam o'zlashtirib borishiga erishish, ularda tanlagan kasbi va kelajakdagi amaliy faoliyati to'g'risida tushunchalar hosil qilish;

- yigit va qizlarning oliy o'quv yurtiga kirguncha jamoat ishlari sohasida orttirgan tajribasini o'rganish va tarbiyaviy ishlarni uyushtirishda uni e'tiborga olish, talabalarni jamoat ishlariga faol jalb etish.

Birinchi kursda bajariladigan tarbiyaviy ishlar asosan talabalar jamoasini uyushtirish, oliy o'quv yurti va fakultetning xususiyati, an'analari bilan tanishtirish, ijtimoiy- gumanitar fanlarni chuqur egallashga qiziqish uyg'otish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil ishlash malakasini hosil qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ikkinchi kursda talabalarining bir qismida oliy o'quv yurtida ta'lim olish sharoitlariga ko'nikish jarayoni davom etadi. Shuning uchun ham ayrim talabalarining oliy maktab sharoitiga

to'la ko'nikishiga yordam beradigan individual tarbiyaviy ishlarni davom ettirish lozim. Ikkinchi kursda tarbiyaviy ishlar, jumladan, quyidagi vazifalarni bajarishga qaratiladi:

- barcha talabalarning oliy maktabda o'qish sharoitlariga ko'nikish jarayonini tugallash, ta'lim olish vazifalarini mustaqil ravishda bajarish sohasidagi malakalarini mustahkamlash, bilish nazariyasining umumiy metodologiyasini o'rganish, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish;

- ilmiy dunyoqarashning nazariy asoslarini egallash, mamlakatimiz hayotida va xorijda ro'y berayotgan madaniy va ijtimoiy hodisalarga qiziqish uyg'otish va ularni mustaqil tahlil qilish malakasini shakllantirish;

- o'rta umumiy ta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb- hunar kollejlarning jamoasi bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish va ayrim o'quvchilar bilan individual ishlash malakasini hosil qilish.

Tarbiyaviy ishlar dasturi va istiqbol rejalarida yuqoridagi vazifalar va uni amalga oshirish vositalari, tarbiyaviy tadbirlar tizimi belgilab beriladi. Ikkinchi kursda bajariladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi mustaqillik mafkurasini ijodiy o'rganish malakasini hosil qilish, targ'ibotchilik sohasida dastlabki ko'nikmalarni egallash, barcha ta'lim- tarbiya ishlarini tanlagan kasbini egallashga yo'naltirish, mustaqil ishlash malakasini takomillashtirishdan iborat.

3. Uchinchi, to'rtinchi kurslarda bajariladigan tarbiyaviy ishlar alohida xususiyatga ega. Bu davrda barcha ishlar, ayniqsa, tanlagan kasbni egallash sohasidagi tadbirlar, bo'lajak mutaxassislarni professional-axloqiy jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi. Uchinchi, to'rtinchi kurs talabalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tanlagan kasbini egallashga, korxonalar, maktablarda va maktabdan tashqi muassasalarda o'quv-tarbiyaviy ishlarini uyushtirish malakasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bitiruvchi kursda ijtimoiy-gumanitar, psixolog-pedagogik va ixtisoslik fanlarini o'rganish nihoyasiga yetkaziladi, natijada, talabalar kasbiy faoliyatni bajarishga tayyor bo'lishlari, mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat qurish qonuniyatlarini, xalqaro iqtisodiy, madaniy aloqa masalalarini tushunib olishlari, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni uyushtirish tajribasiga ega bo'lishlari lozim.

4. Talabalar tarbiyasi yaxlit, bir butun jarayondir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mafkuraviy, aqliy, estetik, huquqiy, ekologik, mehnat tarbiyasidan ajralgan holda emas, balki ular bilan birgalikda amalga oshiriladi. Afsuski, tarbiyaviy ish rejalarida talabalarning tarbiyasi yaxlit jarayon ekanligi yetarli darajada ta'kidlab ko'rsatilmaydi va barkamol inson tarbiyasining ayrim tomonlari haddan ortiq darajada biri ikkinchisidan ajratilgan holda bayon etiladi.

Ayrim hollarda istiqbolli rejalar va dasturlarda tarbiyaning shakl va vositasi degan tushunchalar bir-biridan farq qilinmaydi. Tarbiyaning vositasi shakl tushunchasi bilan teng

ma'noda ishlatiladi. Tarbiya vositasi talabalik faoliyatini, bo'lajak mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Tarbiyaning shakli - tarbiya vositasi va metodlarini biror tadbirda yoki tadbirlar turkumida oydinlashtirishdan iborat. Masalan, talaba bajaradigan ijtimoiy ish-faoliyat turi bo'lib, tarbiyaning vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy ishning biror aniq shakli: guruh majlisi, otaliq yordami, shanbalik kabilar tarbiyaviy ishning shakli hisoblanadi. Faoliyat yoki biror tadbir tarbiyaviy - axloqiy mazmunga ega bo'lsa va uni o'tkazayotgan paytda ma'naviy-axloqiy tomoniga diqqat, e'tibor qaratilsagina tarbiyaning bunday shakli va vositasi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakli yoki vositasi bo'la oladi.


5. Tarbiyaviy rejalarning ko'pchiligida talabalarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashga doir ishlarning ommaviy shakllari mufassal bayon etilgan bo'lib, bu sohada talabalar bilan **individual ishlashga** juda kam e'tibor beriladi. Individual ishlar odatda, juda kam rejalashtiriladi. Bu esa muraobiy — ustoz bilan talaba o'rtasida bevosita aloqalarning kamayishiga olib keladi. Har bir kursda talabalar bilan bajariladigan individual ishlarni puxta o'ylab rejalashtirish maqsadga muvofiq.

6. Tarbiyaviy ishda texnik vosita va kompyuterlardan foydalanish talabalarga o'tkazilayotgan tarbiyaviy ta'sirning samarali bo'lishiga, axborotlarning aniq va emotsional bo'lishiga imkon beradi. Kinofilm, fotosurat, magnet lentasiga yozib olingan nutq kabi vositalardan tarbiyaviy ishlar, tadbirlarda keng foydalanish mumkin. Kinofoto havaskorlikka doir ishlar talabalar jamoasini birlashtiradi, hamkorlik, do'stlik aloqalarini o'rnatish va o'stirishga yordam beradi. Talabalarning ijodiy faolligini oshiradi.

7. Oliy maktabda **o'quv jarayoni** tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblanadi. Talabalarning ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur o'zlashtirishi barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oliy o'quv yurtida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish yoshlarning ma'naviy- axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq, chunki bu fanlar yoshlarda ma'naviy-axloqiy e'tiqodni shakllantirishning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston tarixi, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik chuqur axloqiy mazmunga va katta tarbiyaviy kuchga ega. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ta'limning nazariy qoidalarini bayon etish bilan birga, yoshlarda huquqiy, demokratik jamiyat kishisining axloqiy ideali to'g'risida tasavurni shakllantiradi, kishilar ongidagi eskilik sarqitlarini bartaraf etishda yordam beradi.

8. Tarbiyaviy ish rejalarida talabalami o'z-o'zini tarbiyalashga yordam beradigan ayrim ish shakllari o'z ifodasini topadi. Bunda talabalarning vaqti-vaqti bilan hisobot berishi, tanqid va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini o'stirishga yordam beradigan suhbatlar, kechalar va boshqa tadbirlar, ayrim yoshlar faoliyatida uchrab qoladigan axloqqa to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlarni guruhda muhokama qilish kabilar kiradi. Talabaning individual reja asosida ishlashi ham o'z-

o'zini tarbiyalashga yordam beradigan vositalardan biridir. Bunday reja talabanning o'z tashabbusi bilan tuzilishi va uning jamiyat oldidagi hamda o'zi oldidagi shaxsiy majburiyati boimog'i lozim.



18-rasm. Oliy maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

9. Talabanning **tarbiyalanganlik darajasini aniqlash** uchun uning professional yo'nalishi va ma'naviy-axloqiy qiyofasini ko'rsatib turuvchi, shuningdek, tanlagan kasbi sohasida ishlashga, uni puxta egallashga ruhiy va amaliy tayyorligini bildiruvchi umumiy ko'rsatkichlarga asoslanmoq lozim. Talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning holatini quyidagi asosiy mezonlar ko'rsatkichlar yordamida bilib olish mumkin:

- o'quv mashg'ulotlari jarayonida va o'qishdan tashqari ishlarda talabanning tartib-intizomi, uning o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarda davomati, o'quv va jamoat ishlari sohasida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi;
- talabanning o'zlashtirish sifati, ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashish darajasi;
- pedagogik, ishlab chiqarish amaliyotining natijalari (maktab, korxonalar rahbarlarining tavsifnomasi va amaliyot rahbarlarining xulosalari);
- talabanning o'quv yurtida va undan tashqari jamoat ishlarida, ijtimoiy foydali mehnatda, ommaviy sport va badiiy havaskorlik ishlarida qatnashuvi;
- talabalar kontingentining saqlanishi (qabul qilingandan bitiruvchi kursgacha);
- oliy maktabni tamomlagach, bitiruvchilarning o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashi, maktabda o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish ishining sifati (dastlabki ikki yilning natijalari hisobga olinadi);

- talabaning o'qishdan tashqari paytdagi xulqi; furar joylarda, foydali mehnatda, ekskursiya va turistik safarlar paytidagi xatti-harakatlari, o'zini tutishi;

- tasdiqlangan tarbiyaviy ishlar rejasining bajariishi.

Yuqorida bayon etilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarini chuqur va atroflicha tahlil qilish talabalarning tarbiyalanganlik darajasini obyektiv ravishda baholashga imkon beradi, shu bilan birga yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yanada takomillashtirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar ko'lamini belgilash va ularning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Tarbiyaviy ishlarni istiqbolli rejalashtirish nima uchun zarur?
2. Tarbiyaviy ishlarni majmual rejalashtirishning ahamiyatini ayting.
3. Kasb odobini egallashga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarning xususiyatini ayting
4. Pedagogik kasblarni egallayotgan talabalar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda nimalarga ko'proq e'tibor beriladi?
5. Tarbiyaviy ishlar oliy maktabda ta'lim tizimi va mazmuni bilan bog'liqligini izohlang.
6. Talabalar tarbiyaviy faoliyatining asosiy turlarini ayting. .
7. Oliy maktabda tarbiyaviy tadbirlar tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
8. Birinchi, ikkinchi kurs talabalar bilan bajariladigan tarbiyaviy ishlarning vazifalarini ayting.
9. Yuqori kurslarda bajariladigan tarbiyaviy ishlarning xususiyati nimada?
10. Ommaviy va individual tarbiyaviy ishlar qanday rejalashtiriladi?
11. O'quv jarayoni tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligini izohlang.
12. O'z-o'zini tarbiyalashning shakllari va ahamiyatini ayting.
13. Talabalarning tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatuvchi mezonlarni ayting.

9-mavzu: TALABALAR MA'NAVIY-MA'RIFIY DUNYOQARASHINING SHAKLLARI

R E J A:

1. Talabalarining o'quv jarayonidan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish shakllari
2. Madaniy dam olish. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda talabalarni faol ishtirok etishini ta'minlash
3. Talabalar jamoat tashkilotlarining o'rni va mohiyati

Tayanch so'z va iboralar: ma'naviyat, ma'rifat, bo'sh vaqt, zaruriy vaqt, madaniy dam olish, jamoat tashkilotlari, dunyoqarash, o'quv guruhi, mehnat faoliyati.

Talabalar oliy o'quv yurtida ta'lim olish davrida bajaradigan **mehnat turlari** xilma-xildir. Ularni tahlilini **uch guruhga** ajratish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan mehnat faoliyati. Bunga talabalarning o'quv ishlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, tanishuv, o'quv ishlab chiqarish amaliyotlari kabi mehnat turlari kiradi.

2. O'quv mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtidagi mehnat faoliyati. Bunga o'z-o'ziga xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlar, masalan, o'quv binolari, talabalar uylari, universitet hovlisini tozalash, ozoda tutish, ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish kabi ishlarni kiritish mumkin.

3. Yozdagi mehnat semestri hamda ko'zgi qishloq xo'jalik ishlaridagi unumli mehnat faoliyati.

Talabalarning o'quv va mehnat faoliyatini, ular o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarini uyushtirishda talabalarning birlamchi jamoasi - o'quv guruhi muhim rol o'ynaydi. O'quv guruhini fakultet dekani tomonidan tayyorlangan guruh sardori boshqaradi.

Talabalarning dars jadvali bo'yicha o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlaridan keyingi bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish birinchi navbatda talabalarning o'zi qayg'urishi, bo'sh vaqtning har bir soati, daqiqasidan unumli foydalanishi, mustaqil kitob o'qish, seminarlarga tayyorgarlik ko'rish, o'qituvchilarning topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan aqliy mehnat orasida jismoniy mashqlar, talabalar uyi, universitet, oiladagi kunda-lik turmush yumushlari bilan doimo shug'ullanishga, madaniy dam olishning faol shakllarida foydalangan holda hordiq chiqarishga o'zini o'rgatish, odatlantirishi lozim.

Inson organizmi shunday to'zilganki, uham jismoniy, ham emotsional faoliyat bilan shug'ullanishi talab qiladi. Ammo odamlar ish vaqtida ko'pincha bir xil faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Chunonchi talabalarning asosiy faoliyati aqliy mehnatdan iborat. Lekin, agar talaba hamma vaqt aqliy ish bilan mashg'ul bo'lsa, u jismoniy tomondan zaiflashib boradi, aqliy faoliyatda ham yaxshi natijalarga erisha olmay qoladi. Talaba faoliyatida aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat bir-biriga bog'lanib ketishi kerak. Bu - dam olishning asosiy shart-sharoitidir. Boshqacha qilib aytganda, dam olish - bu eng avvalo faoliyat almashtirish demakdir.

Kishining vaqtiy budjeti odatda "ish vaqtiga", "zaruriy vaqtga", "bo'sh vaqtga" ajratiladi. "Bo'sh vaqt" deganda, keng ma'noda, belgilangan ijtimoiy foydali mehnatdan tashqari bajariladigan barcha faoliyat uchun ketgan vaqt tushuniladi.

"Zaruriy vaqt": uxlash, ovqat eyish, kir yuvish, uyni yig'ishtirish, turli xo'jalik ishlari va hokazolar uchun sariflanadigan vaqt bo'lib, uni ish vaqtiga ham, bo'sh vaqtiga ham kiritish qiyin. Zaruriy vaqt ishlab chiqarish vaqti bilan bo'sh vaqt o'rtasida bo'ladi. Uning zaruriy vaqt deyilishining boisi shundaki, u vaqtda bajariladigan faoliyat inson turmushi, fiziologik-ruhiy hayoti uchun qonuniy ravishda zarurdir.

"Dam olish vaqti" bo'sh vaqtning bir qismi bo'lib, u kishining ishlab chiqarishda sarf bo'lgan ruhiy-fiziologik kuchini tiklash, charchoqini chiqarish hamda uning ma'naviy, intellektual va jismoniy taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

Dam olish aktiv va passiv bo'lishi mumkin. Aktiv dam olishga madaniyat boyliklaridan va go'zalliklaridan bahramand bo'lish, o'ziga yoqqan ijodiy ishlar bilan shug'ullanish, ajoyib kishilar bilan muloqotda bo'lish, sayr qilish va boshqa maroqli mashg'ulotlar kiradi.

Talabalarning madaniy dam olishini uyushtirishda oliy o'quv yurtining rahbariyati va jamoat tashkilotlari, talabalarning o'z-o'zini boshqarish organlari muhim rol o'ynaydi.

Universitet rahbariyati talabalarning bo'sh vaqtini to'g'ri uyushtirish uchun zaruriy sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qiladi, jamoat tashkilotlari esa mavjud sharoit-larni to'la ishga solish, ulardan oqilona foydalanish to'g'risida qayg'uradi.

Madaniy dam olishda talaba o'zi rejalashtirgan masalalardan tashqari oiladagi yoki talabalar uylaridagi sharoitdan kelib chiqib, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari zarur bo'ladi. Agar u oilasida ota-onasi bag'rida yashayotgan bo'lsa, universitetdagi to'garaklarda, sport sho'bbalarida va turli uchrashuv va kechalarda qatnashib, madaniy dam olishini ta'minlaydi. Agar kechagi maktab o'quvchisi, qishloq fuqarosi yangi shahar muhitiga tushib qolsa va talabalar uyi sharoitida yashasa, turmush va maishiy xizmat shakli boshqacha ma'no kasb etadi hamda talaba o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning shakllarini egallash, sarf-harajatlar me'yorni bilishlik, birgalikda yashashda madaniy dam olishni to'g'ri rejalash, boshqalarning manfaatlari bilan hisoblashish kabi hislatlarni egallash zarur bo'ladi. SHuningdek, talabalar uylaridagi "Ma'naviyat va ma'rifat", dam olish xonalaridan, ko'chma kutubxonalardan unumli foydalanish, turli sport musobaqalarida, ko'rik-tanlovlarida ishtirok etish ham madaniy dam olishning shakllaridan biri hisoblanadi. SHuning bilan birga har bir yigit-qiz mustaqil o'zbekistonimiz o'zi tanlab olgan ijtimoiy siyosiy, sotsial-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanish yo'lining asosiy yo'nalish va tamoyillarini, Respublika Konstitutsiyasi, davlat to'zilishi eng muhim qoidalarini, davlat ramzlari - Madhiya, Bayroq va Gerb mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olishi, ularga hurmat va Vatanga sadoqat shakllarini madaniy dam olishda mukammal egallashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Universitet miqyosida o'tkaziladigan O'zbekistonda tasdiqlangan bayram kunlari (1-yanvar - Yangi yil, 8-mart - Xotin-qizlar kuni, 21-mart - Navro'z umumxalq bayrami kuni, 9-may - Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr - Mustaqillik kuni, 1-oktabr - o'qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ramazon va Qurbon hayiti kunlarining birinchi kuni)ga bog'ishlab o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (yig'ilishlar, ko'rik-tanlovlar, uchrashuvlar, kontsertlar, seminarlar, bayram dasturxonlari va h.k)ga ko'proq talaba-yoshlarni jalb etish, ularning tashabbuslari, g'oyalari, takliflari asosida tashkil etish - ma'naviy dunyoqarashning shakllanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Universitetda bir necha o'quv zaliga ega bo'lgan kutubxona, sport zallari va maydonchalari, qahvaxona mavjud bo'lib, ular talabalar ixtiyorida. Sport klub va uning qoshida

sport turlari bo'yicha sho'rbalar ish olib borayapti. Bunday to'garak va turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga talabalarni ko'proq jalb etish zarur jihatlardan hisoblanadi. Zero, ular o'quv-ilmiy tadqiqot ishlari, ijodiy ishlardan so'ng, madaniy dam olish uchun ehtiyoj sezishlari takomillashib boradi.

Talabalarning dam olishini umumli tashkil etishda o'quv guruh murabbiysi va jamoat tashkilotlari (yoshlar sardori, talabalar kasaba uyushmasi qo'mitasi, xotin-qizlar kengashi, talabalar kengashi va b.)ning roli beqiyosdir. Ular talabalarning bo'sh vaqtlarida mo'zaylarga, ko'rgazmalarga, tarixiy yodgorliklar, Urganch shahrining, Respublikamizning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar uyushtiradi, teatr, kontsertlar va kinofilmlarni butun guruh, fakultet, universitet jamoasi bilan borib ko'rishni tashkil etadi. SHuningdek, turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalarini uyushtiradilar. Bunday tadbirlarda ishtirok etib, talabalar san'at go'zalliklaridan bahramand bo'ladilar, madaniy saviyalarini oshiradilar, jismoniy jihatdan chiniqadilar, maroqli hordiq chiqaradilar.

Talabalar uylaridagi talabalar kengashi tomonidan tashkil etiladigan obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va atrof muhitni ozodaligini saqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan xasharlar, talabalar uylari o'rtasidagi "Eng shinam, orasta talabalar uyi", "Eng yaxshi qavat", "Namunali xona" kabi ko'rik-tanlovlarni ham tashkil etilishi talabalarda ma'naviy dunyoqarashni shakllanishida juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi tabiiydir. Universitet, fakultet yoshlar sardori, talabalar kengashining raisi, talabalar uyushmasining raisi, guruh sardorlari, jamoatchilik tartibni saqlash bo'yicha mas'ul, ma'naviyat va ma'rifat tarqibotchisi kabi turli o'z-o'zini boshqarish organlari va talabalar jamoat tashkilotlari-ning samarali faoliyatlari bevosita talabalarning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vositalar sifatida xizmat etib kelmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Talabalarning o'quv jarayonidan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish nima qilish kerak?
2. Madaniy dam olish deganda nimani tushunasiz?
3. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar deganda nimani tushunasiz?
4. Talabalar jamoat tashkilotlarining o'rni va mohiyati

10-mavzu: TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATI.

R E J A:

- 1. Mustaqil ta'lim olish malakasi zarurligi**
- 2. Mustaqil ta'limning turlari**
- 3. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi**

Asosiy tushunchalar: mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarning turlari, shakllari, ma'ruza ustida ishlash (tinglash, yozib olish), arnaliy ish, seminarlarga tayyorlanish, kitob va manbalar bilan ishlash, mustaqil ta'limni rejalashtirish.

I. Mustaqil ta'lim olish malakalari zarurligi

1. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarida mustaqil ta'lim, talabalarning mustaqil ishlari o'quv mashg'ulotlarining turlaridan biri, ta'lim olishning muhim shakli, usuli sifatida ko'rsatilgan.

2. Vazirlar Mahkamasi 2001-yil 16-avgustda tasdiqlagan Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida oliy ta'lim dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar qatorida **bakalavriat** ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha **mustaqil bilim olishi** nazarda tutilgan.

Magistratura ta'lim dasturi mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar qatorida: «magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni model- lashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, **amaliy** mahorat va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak... **mustaqil tadqiqotchilik** faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilish» zarurligi ta'kidlangan. Oliy ta'lim muassasasini bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan davlat standard umumiy malaka

talablaridan biri «yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi» (18-bet) hisoblanadi.

3. Davlat ta'lim standard talablariga muvofiq bakalavriat va magistratura ta'limi o'quv rejalarida mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarga nisbatan ko'proq vaqt (soat) ajratilgan.

4. Oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlari: kunduzgi, sirtqi, eksternat va masofaviy ta'lim olish shakllarida o'zlashtirilishi mumkinligi nazarda tutilgan (Me'yoriy hujjatlar, 1-qism, Toshkent, 1998, 88-bet). Shuningdek, oliy ta'lim haqidagi nizomda: «Talabalar bilim egallashi, belgilangan muddatlarda o'quv rejalari va ta'lim standartlarida ko'rsatilgan topshiriqlarning hamma turlarini bajarishi shart» (Me'yoriy hujjatlar, 1-qism, Toshkent, 1998, 90-bet) deyilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limni isloh qilishga doir me'yoriy davlat hujjatlaridan keltirilgan ushbu talablar, fikrlar oliy o'quv yurtida **mustaqil ta'lim olishga** katta e'tibor berish, talabalarni mustaqil ishlash metodikasi bilan qurollantirish zarurligidan dalolat beradi.

6. **Mustaqil ta'lim** belgilangan o'quv topshiriqlarini talabalar tomonidan mustaqil va ijodiy (yoki professor - o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq) bajarish maqsadiga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini ta'lim oluvchining mustaqil ishi. ri tashkil etadi. Mustaqil ishlar o'quv-biluv faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining tashkiliy shakl - usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari didaktik maqsadi, mustaqil o'quv faoliyatining darajasi, yakka kishiga yoki guruhga mo'ljallanganligi, axborot manbai, bilim olish metodlari, shakli va bajarish o'rniga ko'ra ham tasniflanadi, farqlanadi.

7. Oliy maktab talabasida mustaqil ta'lim olish malaka ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini rejali va sekin-asta murakkablashib, yuqorilab boradigan bosqichlar (darajalar) shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jarayon ko'p qavatli binoning yuqori qavatlariga zinapoyalar orqali ketma-ket, izchil chiqib borilgani singari sodir bo'ladi. Talabaning mustaqil ta'lim olishi bosqichli (darajali) tashkil etilganda, masalan, quyi fanlarda - birinchi bosqichda mustaqil ishlar reproduktiv darajada, ya'ni professor- o'qituvchining topshirig'i va ko'rsatmasiga binoan bajariladi; ikkinchi bosqichda - yuqoriroq - mahsuldor darajada, masalan, tanlangan mavzu bo'yicha dars ishlanmasi loyahasini tayyorlash kabi mustaqil ishlar shaklida; uchinchi bosqichda - yana yuqoriroq - mahsuldor, evristik darajada, qisman ijodiy izlanishni talab etadigan mustaqil ishlar darajasida; va nihoyat to'rtinchi - eng yuqori ijodiy harakterdagi mustaqil ishlar darajasida tashkil etilishi mumkin.

Oliy maktabda talabalarning mustaqil ta'limini rejali va bosqichli tashkil etilishi undan ko'zda tutilgan ta'lim maqsadlarini ro'yobga chiqarishga, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-

gumanitar va kasbiy tayyorgarligi darajasini yuqori ko'tarishga, ta'lim - tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

8. Mustaqil ta'lim barcha o'quv ishlarining yakunlovchi shaklidir. Mustaqil ta'lim jarayonida u yoki bu fan sohasiga doir axborotlarni to'plash, o'zlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, ularni mustahkam bilimga, barqaror malaka va ko'nikmalarga aylantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

9. Ma'ruza tinglash paytida undagi ayrim nazariy masajalarni tushunib olish qiyin bo'lishi mumkin. Ma'ruza jarayonida tushunish qiyin bo'lgan, noaniq joylarini belgilab qo'yish, ma'ruzadan keyin, mustaqil ishlash, kitob o'qish, alohida suhbatlar, maslahat (konsultatsiya)lar yordamida o'zlashtirishning yuqoriroq darajasida egallash lozim.

II. Mustaqil ta'limning turlari

Mustaqil ta'lim oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u quyidagi sohalarda bajariladi:

1. Ma'ruza mavzusi va materiali bo'yicha mustaqil ishlar: ma'ruzada bayon qilingan asosiy tushunchalar, muhim masalalarni idrok etish va anglab olish uchun ma'ruzadan keyin o'z yozuvlari (konspekti)ni tartibga keltirish, tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari, birinchi manbalarni o'rganish bilan o'z yozuvlariga tuzatishlar kiritish va to'ldirish, o'qilgan manbalardan qo'shimcha matnlar olish.

2. Amaliy mashg'ulotlarga, seminar va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik sohasida mustaqil ishlash: axborotlarni tartibga keltirish, savollar tuzish, javoblar hozirlash, o'quv mashg'uloti loyihalarini tuzish, savol-javoblarga, muhokamada qatnashishga, amaliy ishlarni bajarishga tayyorlanish.

3. Referatlar, ma'ruzalar, fan ishlarini yozish bo'yicha o'quv-biluv topshiriqlarini bajarish bo'yicha mustaqil ishlar.

4. Nazorat ishlari (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlari) sohasida o'quv-biluv topshiriqlarini bajarishga doir mustaqil ishlar.

5. Malakaviy amaliyotlar bilan bog'liq o'quv-biluv topshiriqlarini mustaqil bajarish: pedagogik amaliyot, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar shular jumlasiga kiradi.

6. Maxsus fan va maxsus seminarlarni o'rganish bilan bog'liq mustaqil ishlar: ma'ruza mavzusiga doir adabiyotlarni o'qib, o'rganib, biror masala bo'yicha matn tayyorlash, ma'ruza o'qishga hozirlanish kabilar.

7. Malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash sohasida mustaqil ishlar.

III. **Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi**

1. **Ma'ruzani tinglay olish.** Oliy maktabda ma'ruza jarayonida talabalardan ma'ruzachini diqqat bilan tinglash, fikr yuritish va eshitganlarini yozib borish (matnlashtirish) talab etiladi. Fikrni bir joyga to'plab, diqqatni ma'ruzachi bayon qilayotgan masalaga safarbar qilish, faollik ko'rsatish bilangina ma'ruza mazmunini to'g'ri tushunish, bilish va anglab o'zlashtirish mumkin.

Talaba o'quv-biluv maqsadini aniq tasavur etib, ma'ruzaga oldindan tayyorlanib kelsa (oldingi ma'ruzada bayon qilingan masala - materialni ko'rib, darslikdan yangi mavzuni o'qib kelsa), ma'ruzachi bayoniga o'z fikrlarini to'plab, to'la safarbarlik bilan tinglay oladi. Buning uchun talabada ma'ruzani tinglashga kuchli motiv mavjud bo'lishi lozim.

Talaba ma'aizani tinglash jarayonida asosiy tushunchalar, muhim g'oyalarni o'z daftariga yozib borishi kerak, bunda ham eshitish, ham ko'rish, ham harakat xotirasi ishlaydi, faoliyat asosida bilim o'zlashtiriladi.

2. **Ma'ruzani yozib olish.** Har bir ma'ruza mazmuni (jarayoni)da quyidagilar bo'ladi: ma'ruzaning asosini tashkil etadigan muhim g'oya; muhim g'oyani asoslash, juz'iy xulosalar; qisqa muddatli pauzalar; ta'riflar, tamoyillar, tushunchalar.

Ma'ruzani matnlashtirayotganida talaba asosiy g'oya, muhim masalalar, asosiy tushunchalar, tamoyillar, ta'riflar, xulosalarni o'z daftarida qayd etib, yozib borishi kerak. Ma'ruza jarayonida professor - o'qituvchi shu xil joylarni ovozini o'zgartirish, nutq tempini kamaytirish bilan ajratib beradi, e'tibor berib tinglansa, zarur joylarni yozib olish imkon bo'ladi.

Yozib olish paytida ma'lum tartibga amal qilinsa (ma'ruzaning muhim masalalari; fakt, dalil, ta'rif, xulosalar; savol-javoblar, mulohazalar), tinglash jarayonida asosiy narsalarni ajrata olish malakasi hosil bo'ladi.

3. **Matnlashtirayotganda** quyidagilarga rioya qilish lozim:

- hoshiya qoldirish;
- har bir masalani tartib raqami bilan belgilash va satr boshidan yozish; ravshan yozish, ostiga chizib, ajratish;
- shaxsiy shartli qisqartirishlardan foydalanish: q/q (qarama- qarshilik), kabi;
- sitatalarning hoshiyasini ko'proq qoldirish;
- imloga, husnixatga rioya qilish, tartibli, toza yozish;
- yozib ulgurmaganlariga joy qoldirib ketish;
- ruchkada yozish;
- yozuvlarni uyda o'qib chiqib, xatolarini to'g'rilash, to'ldirish, bu ishni iloji boricha o'sha kuni yoki vaqt ko'p o'tmay qilish;
- o'zingiz qatnashmagan ma'ruzani o'rtog'ingiz matnidan ko'chirib, kitoblardan o'qib o'rganish zarur.

4. **Kitob, manbalar bilan ishlash.** Yuqori malakali mutaxassis bo'lish, o'z bilimlarini muntazam oshirib borish uchun talaba kitob bilan, birinchi manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi zarur. Kitob bilan ishlay olish malakasi nazariy bilimlarni chuqurroq egallashning shartidir.

Birinchi fan talabalari, odatda, zarur kitobni tanlash, topishga qiynaladilar, kitobni maqsadga muvofiq tarzda qunt bilan o'qish o'rniga ayrim joylarinigina o'zgarishsiz ko'chirib qo'ya qoladilar. Vaholanki, talaba kitobni qanday topish va undan qanday foydalanishni bilmog'i lozim.

5. Talaba mustaqil o'qib o'rganishi zarur bo'lgan kitoblarni professor-o'qituvchi ma'ruza, seminar paytida tavsiya qiladi va kerakli maslahatlarni beradi. Oliy o'quv yurti talabasi DTS ning ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy, ixtisoslik va boshqa fan bloklariga doir kitoblar, manbalarni o'rganishi zarur. U ustozlarining maslahati va ko'rsatmalariga amal qilishi kerak. Shu tariqa zarur kitoblarni tanlash va mustaqil ta'lim olish malakalarini egallab oladi.

6. Mustaqil ta'lim olish uchun talaba bibliografiya qanday bo'lishi, qanday tuzilishini bilib olishi lozim. Bibliografiyaga doir yozuvlarni alohida daftarga, bloknotga yoki kartochkalarga qayd etib (yozib) borish kerak. Bunda quyidagi tartibga amal qilinadi: awalo, kitob yoki maqola muallifining familiyasi, ismi - sharifi, kitobning nomi, joy nomi, nashriyot nomi, chiqqan yili, hajmi (necha betligi) ko'rsatiladi. Masalan: N.Komilov, Tasawuf yoki komil inson axloqi- Birinchi kitob, Toshkent, «Yozuvchi» nashriyoti 1996, 272-bet.

Ilmiy jurnal yoki ilmiy to'plamda bosilib chiqarilgan maqola bo'lsa, unda awalo muallifning familiyasi, ismi - sharifi, so'ngra maqolaning nomi, jurnal (to'plam)ning nomi, joyi, vaqti (yili), soni, so'ngra betlari ko'rsatiladi. Masalan: Sh. Qurbonov va boshqalar. Barkamol avlod orzusi («Xalq ta'limi» jurnali, Toshkent, 1998, 6 - son, 4-18- betlar).

Shu bilan birga talaba kutubxonadan o'ziga kerakli kitobni qanday qidirib topishni ham bilishi lozim. Har bir kutubxonada mavjud kitoblar bibliografiyasi (ro'yxati) shifrlanib, bibliografik kartochkalar shkaflardagi qutichalarga alfavit tartibida hamda mavzular bo'yicha (sistemalashtirilib) joylashtirilgan bo'ladi. Talaba o'ziga kerakli kitobning nomi yozilgan kartochkadan kitobning nomi va shifrini aniqlab, kitob olishga buyurtma berishi mumkin.

7. Darslik, ilmiy asarlar yoki maqolalarni o'qib o'rganish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin. Tavsiya etilgan kitob, risola, darslikning bobi, paragrafi (fasli) awalo boshdan oxirigacha bir marta o'qib chiqiladi, umumiy tasawur hosil qilinadi: muallifi, kitobning, maqolaning, bob yoki paragrafning nomi bilib olinadi; kitobning muqaddimasi, asarning boshida yozilgan va shu asarning mazmunini ifodalaydigan sitata, annotatsiya, epigrafi bilan tanishish shu kitobning muhim g'oyasi va yo'nalishi haqida tasawur beradi.

So'ngra qo'lda qalam (ruchka) bilan jiddiy e'tibor berib, asosiy matn o'qib o'rganiladi, muhim o'rinlari yozib boriladi. Kitobni bobma-bob yoki paragraflar bo'yicha o'rganish va asosiy g'oyalarni qisqa yozib borish maqsadga muvofiq.

Kitob o'qish ijodiy ish bo'lib, o'qish jarayonida fikr yuritish, tanqidiy yondashish, mulohaza qilish, lug'atlar, ensiklopediyalardan foydalanish lozim. Kitob matnida "berilgan tablitsa, rasm, sxema, grafik, ko'rgazmalarni sinchiklab o'rganish, matn mazmuniga solishtirib ko'rish, zarur boisa, ko'chirib olish kerak.

8. O'qib chiqilganlarni yozib borish reja, tezis, sitata, matn kabi shakllarda bo'ladi.

Reja — o'qib chiqilgan mavzuga doir muhim masalalar (savollar)dir, unda javob boimaydi. Reja sodda yoki murakkab bo'ladi. Agar undagi axborotlar yaxshi anglab o'zlashtirilgan bo'lsa, og'zaki javob yoki munozarada qatnashish uchun reja tuzish yetarli bo'ladi.

Tezis - darslik, risola, maqoladagi asosiy masalalarni qayd etish bo'lib, nutq so'zlash paytida u kengaytiriladi va isbot qilinadi. Tezis tuzish uchun avval undagi axborotlarni bilib, tushunib o'rganib chiqish va o'z fikrini og'zaki ifodalay bilish malakasi zarur. Tezislar, odatda, tartib raqami qo'yib tuziladi.

Sitata — asarda qisqa ifodalangan bosh g'oya, asosiy fikr aynan ko'chiriladi, sitatalar qo'shtirnoq ichiga olib yoziladi, oxirida manba aniq ko'rsatiladi. Sitatalardan og'zaki va yozma javoblarda foydalaniladi.

Matnda darslik bobi, paragrafi yoki asarning to'la mazmuni o'zlashtirilib, qisqaroq shaklda ifodalanadi. Matnni har bir talaba o'zi mustaqil tuzishi lozim. Ma'ruza matnida asosiy tushunchalar, mavzuning muhim masalalari ko'rsatiladi. Matnda asarning ma'nosi asosan to'g'ri, ifodasi kitobdagidan boshqacha iboralarda beriladi. Talaba kitobdagi asosiy g'oyalarni, o'z fikrlarini mustaqil ifodalay olishi lozim. Mustaqillik fandagi g'oyalarni anglab chuqur tushunib olish, tafakkur va nutq yordamida o'z fikr-mulohazalarini bayon eta bilishdir. Bu oson ish emas. Unga mutolaa qoidalariga amal qilish, ko'p o'qish va o'rganish, munozara, muhokama, seminarlarda faol qatnashish yo'li bilan erishiladi.

9. Mustaqil ishlashning muvaffaqiyati talabanning vaqtdan to'g'ri foydalana bilishiga, aqliy mehnat madaniyatini egallash darajasiga, kun tartibi qoidalariga amal qilishiga ham bog'liq.

Talabanning vaqt budjetida auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlar uchun haftasiga 18-24 soat vaqt bo'lishi mumkin. Talabanning bir kunlik ish vaqti 9-10 soat bo'lib, shundan 6 soati auditoriyada; 3-4 soati boshqa joyda mustaqil ishlar shaklida tashkil etiladi.

10. Mustaqil ta'lim oluvchiga ustoz o'g'itlari. O'zbekiston Respublikasining buyuk kelajagini yaratishga bel bog'lagan yoshlar - oliy o'quv yurti talabalariga donolarning quyidagi hikmatlarini yodda tutish foydali deb hisoblaymiz.

a) Nazariy va kasbiy bilimlarni, arnaliy ko'nikma, malakalarni egallashni ko'zlagan yoshlar, awalo, ishda sobit qadam, izchil bo'ling. Bilimlarni o'zlashtirishda izchillik, ketma-ketlikka qat'iy amal qilishga o'rganing. Fan cho'qqilariga chiqishga urinishdan awal, uning alifbesini o'rganib oling. Oldingilarini chuqur o'zlashtirib olmasdan turib keyingisiga qo'l urmang.

b) Oliy maktab talaba tafakkurini to'la shakllantiradigan maskan emas. Bu yerda yoshlar mustaqil ishlashga o'rgatiladi. Siz manbalar bilan mustaqil ishlash malakasiga ega boisangiz, kitobni o'qish bilan undagi asosiy g'oyani anglab olsangiz va undagi axborotlarni tahlil qila bilsangiz, mana shuning o'zi siz uchun juda muhim, qolganlarini siz amaliyotda egallay olasiz. Agar oliy maktabda fandagi bilimlarni, g'oyalarni, nazariyalarni anglash', tushunish, uni amaliyotda qo'llay olish usulini o'rganib olgan bo'lsangiz, oliy maktab o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

d) Mustaqil ta'lim olish malakasini hosil qilish murakkab ish; oliy maktabda o'qish yillarida buni o'zingiz egallashingiz lozim.

e) Mustaqil ishlash uchun vazifa, topshiriq berilib, manba ko'rsatilgach, paysalga solib, vaqtni o'tkazmang, iloji boricha tezroq ishga kirishing.

c) Mustaqil ishlashga istak, ishtiyoq uyg'onishini kutib turmay, irodangizni ishga solib, bunday vaziyatni o'zingiz yarating.

g) Ish vaqtida diqqatni bir joyga to'plab e'tibor bilan o'qing, faqat shu mavzu haqida fikr yuriting.

h) Sizga qiziqarli bo'lmasa ham, ammo zarur bo'lgan ishga nisbatan o'zingizda motiv, ehtiyoj uyg'ota oling.


i) Kitob ustida ishlashdan oldin maqsadni oydinlashtirib, aniqlab oling: mustahkam esda saqlang, anglab, tushunib oling, ishni oxiriga yetkazing.

j) Kitobdagi, topshiriqdagi murakkab, qiyin joylarga ko'proq e'tibor bering, chuqurroq tushunishga yordam beradigan usullardan (yozib olish, sxema va rasmlar chizish, aytish, so'zlab berish, muammo qo'yish, fikrlab uni yechish kabi) foydalaning.

k) Yangi ish boshlashdan oldin ilgari bajarilgan ishni ko'rib chiqing. Ishni o'zingiz mustaqil bajara olmasligingizga to'la ishonch hosil qilmaguningizcha birovdan yordam so'ramang.

l) Bilib, tushunib olingan axborotlarni aynan eslab qolishdan cho'chimang, bilib olinganlarni vaqti-vaqti bilan takrorlab turing, takrorlash o'qishning onasi, degan hikmatni unutmang.

m) Yozib olgan matningizni o'qib chiqing, undagi xato va kamchiliklarni bartaraf eting.



10-rasm. Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Oliy ta'limda DTSda talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga doir talablarni ayting.
2. Mustaqil ta'lim tushunchasi nimani anglatadi?
3. Mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malaka shakllanish darajalari nimalardan iborat?
4. Mustaqil ta'limning qanday turlari qo'llaniladi?
5. Mustaqil ta'lim texnologiya atamasi nimani anglatadi?
6. Ma'ruzani qanday tinglash va yozib olish kerak?
7. Mustaqil o'qib o'rganilganlarni matnlashtirishda qanday qoidalarga amal qilinadi?
8. Kitob va manbalarni mustaqil o'qib o'rganish texnologiyasini ayting.
9. Bibliografiya nima, u qanday tuziladi?
10. Darslik, ilmiy asar, maqolalarni o'qib o'rganish tartibini ayting.
11. O'qib chiqilganlarni yozib borish shakllarini (reja, tezis, matn) izohlab bering.

Manbalar, adabiyotlar.

1. Oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. Toshkent, 2001-yil.
2. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining mustaqil ishlari. O'qituvchilik ixtisosiga kirish faniga metodik ko'rsatmalar. Toshkent, 1980, 72 - 84 - betlar.
3. Самостоятельная работа студентов. «Будущий учитель». Qarshi, 1983, 18-29-стр.